

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

NURMATOV SIROJIDDIN SULTANMURATOVICH

HINDIY TILIDA SANOQ TIZIMINING SHAKLLANISHI
VA TARAQQIYOTI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UO‘K: 811.214.3

KBK: 81.522

N-90

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Content of the abstract of Doctoral (DSc) dissertation
in philological sciences**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации по
филологическим наукам**

Nurmatov Sirojiddin Sultanmuratovich

Hindiy tilida sanoq tizimining shakllanishi va taraqqiyoti 3

Nurmatov Sirojiddin Sultanmuratovich

The formation and development of the numeral system in Hindi
language 37

Нурматов Сирожиддин Султанмуратович

Становление и развитие системы счисления на языке хинди 71

Эълон қилинган ишлар рўйхати

List of published works
Список опубликованных работ 76

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 RAQAMLI ILMY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

NURMATOV SIROJIDDIN SULTANMURATOVICH

HINDIY TILIDA SANOQ TIZIMINING SHAKLLANISHI
VA TARAQQIYOTI

10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.DSc/Fil170 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tsuos.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Sodiqov Qosimjon Pozilovich

filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Safarov Shahriyor Safarovich

filologiya fanlari doktori, professor

Nosirova Saodat Abdullayevna

filologiya fanlari doktori, professor

Nizomiddinov Najmiddin G‘ulomovich

filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21; faks: (99871) 233-52-24; e-mail: info@tsuos.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100060, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel: (99871) 233-45-21).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «__» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.M.Mannonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

N.R.Ismatullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.fan.b.fals.d. (PhD), dotsent

X.Z.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida son turkumiga kiruvchi soʻzlarning oʻziga xos jihatlari lingvistik aspektida tadqiq etishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Taʼkidlash joizki, son turkumining oʻziga xos jihatlari olimlar tomonidan uzoq vaqtlardan beri oʻrganib kelinmoqda. Lekin, barcha tillarda ular birday tadqiq etilgan emas. Hatto baʼzi tillarda son turkumiga xos lingvistik xususiyatlar juda oz oʻrganilgan. Son boshqa soʻz turkumlariga nisbatan turgʻun, oʻziga xos xususiyatga ega. Son turkumining voqelanishi har bir tilning tabiatidan kelib chiqadi.

Dunyo tilshunosligida Janubiy Osiyo mintaqasida keng tarqalgan hind-oriy tillari guruhiga kiruvchi hindiy tilidagi sonlarning shakllanish bosqichlari va tarixiy taraqqiyoti lingvistik aspektida tadqiq etilmagan. Ilmiy-nazariy jihatdan qaraganda, hindiy tilidagi sonlarning rivojlanish jarayoni va hozirgi strukturasi nihoyatda murakkab. Hozirgi hindiy adabiy tilidagi sonlarning shakllanishida prakritlardan qay biri asos boʻlganligi hali-hanuz aniq yechimini topmagan. Hindiy tilidagi sharqiy va gʻarbiy hindcha elementlar, sonlar tarkibidagi sintetik fuziyaning saqlanganligi va baʼzi son turlariga xos analitik hodisalar hanuzgacha tadqiq etilmagan. Bugunga qadar hind tilshunosligida hindiy tili boʻyicha muayyan ilmiy ishlar amalga oshirilgan boʻlsa-da, hindiy tilidagi sonlarning shakllanishi va taraqqiyotiga doir fundamental tadqiqotlar yoʻq. Bularning bari mavzuni monografik planda oʻrganish, hindiy tilidagi sonlarning oʻziga xos jihatlari atroflicha tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Demak, hind tilshunoslari oldida ham amaliy, ham nazariy muhim masala oʻz yechimini kutmoqda.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimiz tiklanishi bilan bir qatorda, hukumatimiz chet tillarni oʻrganishga ham keng yoʻl ochib berdi. Yurtimizda gʻarb tillari bilan bir qatorda, sharq tillarini oʻrganishga ham katta eʼtibor berila boshladi. Ayniqsa, Prezidentimizning Hindistonga qilgan rasmiy safaridan soʻng ikki davlat oʻrtasidagi keng qamrovli iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy aloqalar bu tillarni yanada keng oʻrganish va ularga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruratini kun tartibiga qoʻydi. Jahon hindshunosligida aynan sonlarning evolyutsion tadqiqiga doir fundamental tadqiqotlarning yoʻqligi, mazkur mavzuni atroflicha oʻrganishni taqozo etadi. Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasida "... ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini ragʻbatlantirish, ilmiy hamda innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish"¹ masalalarining ustuvor strategik yoʻnalish sifatida belgilab qoʻyilishi tilshunoslik sohasidagi ilmiy izlanishlarni ham yangi bosqichga olib chiqdi. Bu borada Hind-Yevropa tillari oilasining hind-oriy tillari guruhiga xos boʻlgan hindiy tilidagi sanoq tizimining shakllanish va rivojlanish tamoyillarini aniqlash muhim.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ–2909-son "Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida", 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ–3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻib

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni. – Xalq soʻzi, 2017-yil 8-fevral. – № 28 (6722).

qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 21-dekabrda PQ-447-son "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Hindiy tilidagi sonlarning evolyutsiyasi tadqiqiga oid ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Jorjtaun Universiteti (AQSH), Londoning Oksford Universiteti (Buyuk Britaniya), Madras Universiteti (Hindiston), Jamiya Milliya Islamiya Universiteti (Hindiston), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti qoshidagi Osiyo va Afrika mamlakatlari instituti (Rossiya), Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti (Rossiya), Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Hindiy tilidagi son turkumining o'ziga xos lingvistik jihatlari tadqiqiga oid olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: hindiy tilidagi sonlarning o'ziga xos ifodalanish jihatlari o'rganilgan (Jorjtaun Universiteti), hind-oriy tillaridagi sonlarning o'xshash va farqli jihatlari tadqiq etilgan (Londoning Oksford Universiteti), dravid va hind-oriy tillaridagi sonlarning o'ziga xosliklari qiyosan o'rganilgan (Madras Universiteti), hindiy va o'zbek tillaridagi sonlarning o'ziga xos ifodalanish jihatlari qiyosan o'rganilgan (Jamiya Milliya Islamiya Universiteti), romalar tilining o'ziga xosliklari sonlar misolida tadqiq etilgan (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti qoshidagi Osiyo va Afrika mamlakatlari instituti), hindiy va singal tillaridagi sonning morfologik xususiyatlari qiyoslanib, ular orasidagi izomorfizm va allomorfizm jihatlari tadqiq etilgan (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti).

Bugunga kelib, jahon tilshunosligida sonlarning o'ziga xos lingvistik jihatlari qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <http://www.dissercat.com>, <http://www.indianlanguagesonline.com>, <http://www.dravidianlanguagesonline.com>, <http://www.cyberlinka.com>, <https://madrasuniversity.org>, <http://scopus.com>, <http://www.sciencedirect.com/pii/pdf>, <http://www.linguistics-journal.com/a-c>, <http://searchworks.stanford.edu/view>, <http://diss.rsl.ru>, www.indianacademy.ir va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

borilmoqda: hindiy tilining o'ziga xosliklarini son turkumi doirasida ilmiy tadqiq etish; hindiy tili so'z yasalishi tizimidagi umumiylik va farqlarni dvigu so'zlari asosida aniqlash; hindiy tilidagi sonlarning o'ziga xos shakllanish jihatlarini atroflicha o'rganish; dvigu so'zlarining shakllanishida sonlarga xos so'zlarning o'rnini ilmiy dalillash; hindiy tilidagi sonlarga xos so'zlarning etimologik lug'atini tuzish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mazkur mavzu doirasida ko'plab tilshunos olimlar hindiy tilidagi sonlarga oid ma'lumotlarni o'z tadqiqotlarida umumiy tarzda qayd etib o'tganlar. Jumladan, S.K.Chatterji³, D.Varma⁴, U.Tivariy⁵, B.Tivariy⁶, K.Guru⁷, Z.M.Dimshch⁸, G.A.Zograf⁹, T.E. Katenina¹⁰, A.P.Barannikov¹¹, V.P.Liperovskiy¹² va boshqa tilshunos olimlar¹³ sonning umumiy leksik-grammatik jihatlarigagina e'tibor berganlar. Hind-oriy tillaridagi son turkumiga oid so'zlarning morfologik jihatlariga doir nazariy qarashlarini bayon etganlar. Ularning ishlarida sanoq sonlar uch guruhga taqsimlangan, ular oddiy, murakkab va qo'shma sonlar deb nomlangan va hindiy tilida sanoq, tartib, kasr, jamlovchi, ko'paytiruv sonlari mavjudligi qayd etilgan.

Hardev Bahri¹⁴, Saryuprasad Agraval¹⁵, Vimlesh Kanti Varma¹⁶, Hemchandr Pandey¹⁷, Chandrabhan Ravt¹⁸, Dipchandr Jain, Kailash Tivari¹⁹, Padmasinh Sharma²⁰,

³ Chatterji S.K. The original and development of Bengali Language. Volume two. –Culcutta, 1975.–794-806 p.

⁴ धीरेन्द्र वर्मा। हिन्दी भाषा का विकास। – प्रयाग, हिन्दुस्तानी एकेडेमी, 1962. – पृ। 266-279.

⁵ उदयनारायण तिवारी। हिन्दी भाषा का उद्गम और विकास। – प्रयाग, भारती भंडार लीडर प्रेस, 1955. – पृ। 437-448.

⁶ भोलानाथ तिवारी। हिन्दी भाषा। – इलाहाबाद, किताब महल, 1972. –पृ। 585-607.; भोलानाथ तिवारी। हिन्दी भाषा का संक्षिप्त इतिहास। – दिल्ली, ज्ञान भारती, 1981. –पृ। 117-122.

⁷ Гурю К. Грамматика хинди. Часть I. Пер. с хинди Г.А. и Р.И.Баранниковых. под ред. и с предисл. проф. Б.А.Ларина. – М.: Издательство иностранной литературы, 1957. – С.136-148.; कामताप्रसाद गुरु। संक्षिप्त हिंदी व्याकरण। – काशी, नगरीप्रचारिणी सभा, 1962. – पृ। 87-91.; कामताप्रसाद गुरु। हिन्दी व्याकरण। – नई दिल्ली, लोकभारती प्रकाशन, 2012. – पृ। 307-312.

⁸ Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т I. – М.: Наука главная редакция восточной литературы, 1986. – С. 86-95.

⁹ Зограф Г.А. Морфологический строй новых индоарийских языков (опыт структурно-типологического анализа). – М.: Наука главная редакция восточной литературы, 1976. – С.143-146.

¹⁰ Катенина Т.Е. Краткий очерк грамматики языка хинди. Приложение к «Русско-хинди словарю». – М.: Государственное издательство иностранных и национальных словарей, 1957. – С. 1308-1310.

¹¹ Баранников А.П. Краткий грамматический очерк хинди. Прил. к «Хинди-русский словарь». – М.: Издательство восточной литературы, 1959. –С.1145-1149.

¹² Липеровский В.П. Именные части речи языка хинди. – М.: Наука главная редакция восточной литературы, 1978. – С. 101-114.

¹³ Qarang: Чернышев В.А. Диалекты и литературный хинди. – М.: Наука главная редакция восточной литературы, 1969. – С. 76-78.; Кочергина В.А. Санскрит. – М.: Академической Проект, 2007. – С.156-158.; Aneja M.P., Parasuraman T. Numerals in Hindi and Tamil // Proceedings of the thirteenth all India conference of Dravidian Linguists. – Thanjavur, Tamil University, 1986. – P. 269-285.; Colin P. M. The Indo-Aryan languages. – New York, Cambridge university press, 1991. – P. 234-249.

¹⁴ हरदेव बाहरी। भाषा का विकास। – दिल्ली, 1992. – पृ। 157-162.

¹⁵ सरयूप्रसाद अग्रवाल। भाषाविज्ञान और हिन्दी। – इलाहाबाद, 1997. – पृ। 308-315.

¹⁶ विमलेश कान्ति वर्मा। हिंदी और उसकी उपभाषाएँ। – दिल्ली, प्रकाशन विभाग सूचना और और प्रसारण मंत्रालय, 1995. – पृ।197-216.

¹⁷ हेमचन्द्र पाँडे। समसामयिक हिन्दी व्याकरण। – दिल्ली, ग्रंथलोक, 2012. – पृ। 96-101.

¹⁸ चन्द्रभान रावत। हिन्दी भाषा: विकास और विश्लेषण। – आगरा, सरस्वती प्रकाशन मन्दिर, 1968. – पृ। 119-126.

¹⁹ दीपचन्द्र जैन, कैलाश तिवारी। हिन्दी और उसकी विविध बोलियाँ। – भोपाल, मध्यप्रदेश हिन्दी ग्रंथ अकादमी, 1972. – पृ। 110-114.

²⁰ पद्मसिंह शर्मा। हिंदी, उर्दू और हिंदुस्तानी। – इलाहाबाद, हिंदुस्तानी एकेडेमी, 1951. – पृ।45-48.

Saroj Sharma²¹, Vinaymohan Sharma²², Rajendrmohan Bhatnagar²³, Raybahadur Shyamsundardas²⁴ va boshqa hind tilshunos olimlarining ilmiy asarlarida²⁵ sanoq sonlarga xos soʻzlar sonlarning boshqa turlarini yasash uchun asos boʻlib kelishi va tartib, jamlovchi, koʻpaytiruv sonlari aynan sanoq sonlardan yasalishiga alohida urgʻu berilgan. Bular orasida tartib sonlar, oʻzining yasaliş va qoʻllanishi jihatidan boshqa son turlaridan qisman farqlanishi va kasr sonlarning oʻziga xos ifodalanish jihatlari ham bayon etilgan. Shuningdek, qadimgi hind tilshunosligi boʻyicha yirik mutaxassis Panini ham sonlarga doir oʻz qarashlarini bildirgan. U barcha soʻzlarning oʻziga xos lingvistik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni ism, feʼl, yuklama va predloglarga ajratgan. Sonlarga doir soʻzlarni ism guruhiga kiritgan va ularning umumiy qoʻllanish jihatlari bayon etgan²⁶. Taʼkidlash joizki, hind-oriy tillariga oid hindiy tilidagi sonlarning oʻziga xos lingvistik xususiyatlari yirik tadqiqot sifatida atroflicha oʻrganilmagan.

Hind tilshunosligida sonlarning oʻziga xos shakllanish jihatlari maxsus oʻrganilmagan boʻlsa-da, sonlar doirasida boshqa tillarda ham koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda sonlarning oʻziga xos jihatlari lingvistik aspektida keng tadqiq etilgan. Qiyosiy-tipologik metod asosida sonlarning fonetik, morfologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Son komponentli frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlari atroflicha oʻrganilgan. Shuningdek, numerativlarning maʼno xususiyatlari hamda numerativlar ishtirokidagi frazeologik birliklarning semantik jihatlari va ularning oʻziga xos uslubda tarjima qilinish tamoyillari ishlab chiqilgan²⁷. Ushbu tadqiqotlarda ham sonlarga xos soʻzlar evolyutsiyasi tadqiqi amalga oshirilmagan. Mazkur tadqiqotda boshqa tillardagi sonlar doirasida olib borilgan tadqiqot ishlaridan farqli oʻlaroq hindiy tilidagi sonlarning shakllanish va rivojlanish

²¹ सरोज वर्मा। भाषा-विज्ञान एवं हिन्दी भाषा का इतिहास। – दिल्ली, प्रकाशक हिन्दी साहित्य संसार, 1958. – पृ। 139-144.

²² विनयमोहन शर्मा। हिन्दी का व्यवहारिक रूप। – दिल्ली, राधाकृष्ण प्रकाशन, 1968. – पृ। 54-58.

²³ राजेन्द्रमोहन भटनागर। आधुनिक हिन्दी व्याकरण। – नई दिल्ली, सामयिक प्रकाशन, 1989. – पृ। 165-169.

²⁴ रायबहादुर श्यामसुंदरदास। हिंदी भाषा। – प्रयाग, इंडियन प्रेस (पब्लिकेशंस) प्राइवेट लिमिटेड, 1961. – पृ। 93-96.

²⁵ Qarang: इन्द्र चन्द्र। भारत की आर्य-भाषाएँ (ऐतिहासिक तथा तुलनात्मक अध्ययन)। – दिल्ली, सार्वभौम संस्कृति पीठ प्रकाशक, 1978. – पृ। 65-71.; जगदीश प्रसाद कौशिक। भारतीय आर्य भाषाओं का इतिहास। – जयपुर, अपोलो प्रकाशन, 1961. – पृ। 251-255.; रामवीर सिंह। हिंदी का इतिहास। – आगरा, केंद्रीय हिंदी संस्थान, 2007. – पृ। 69-73.; भिक्षु धर्मरक्षित। पालि व्याकरण। – वाराणसी, ज्ञानमंडल लिमिटेड, 1961. – पृ। 334-339.; भिन्दु जगदीश काश्यप। पालि महाव्याकरण। – इलाहाबाद, जर्नल प्रेस, 1940. – पृ। 242-245.; राजगोपालन न. वी. हिन्दी का भाषावैज्ञानिक व्याकरण (विपरिवर्तक-निष्पादक व्याकरण)। – आगरा, केंद्रीय हिन्दी संस्थान, 1973. – पृ। 91-94.; राजशिकोर सिंह। संस्कृत भाषा-विज्ञान। – आगरा, विनोद पुस्तक मन्दिर, 1976. – पृ। 77-80.

²⁶ सरिसचंद्र वासु। पाणिनी: अष्टाध्यायी - भाग 3। – अजमेर, भारतीय प्राच्यविद्या प्रतिष्ठान, 1961. – पृ। 125.

²⁷ Qarang: Гизатуллина Л.Р. Нумерологические фразеологические единицы в английском и татарском языках: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Уфа, 2004.; Гомонова О.В. Семантические, грамматические и функциональные особенности слова «один» в современном русском языке: дисс. ... канд. филол. наук. – Таганрог, 2000.; Жиянова Н.Э. “Бобурнома”даги нумеративларнинг маъно хусусиятлари: фил.ф.н. ... дис. автор-и. – Тошкент, 2000.; Каримов А.А. Хитой тилида ҳисоб сўзлар (лексик-семантик, структурал ва функционал таҳлил). –Т.: Фан ва технологиялар, 2003.; Мавлянова У.Х. Хитой тилида сонларнинг семантикаси: лингвомаданий таҳлил: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)....ёзил. дисс. – Тошкент, 2020. – 155 б.; Низамиддинова С. Имена числительные в современном узбекском литературном языке: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1961.; Пенжиев М. Имена числительные в современном туркменском языке: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ашхабад, 1962.; Саидниязова Х.М. Сопоставительное изучение имен числительных в современных английском и узбекском языках: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1989. va boshqalar.

bosqishlari atroflicha tadqiq etiladi va ularning o'ziga xos lingvistik jihatlari ochib beriladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Xorijiy Sharq mamlakatlari tillarini o'rganish va tilshunoslikning nazariy masalalari" hamda "Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari tillarining dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hindiy tilidagi son turkumiga oid so'zlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini diaxronik-sinxronik aspektda atroflicha baholash hamda ularning shakllanish va rivojlanish jarayonlarida yuzaga kelgan lingvistik hodisalarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

hindiy tilidagi qadimgi hind-oriy tillaridan to yangi hind-oriy tillarigacha bo'lgan davr oraliq'ida son turkumiga oid so'zlarning shakllanishi va rivojlanishida yuz bergan fonetik o'zgarishlarni aniqlash;

hindiy tilidagi son turkumiga oid so'zlarning shakllanishi va rivojlanishida sodir bo'lgan morfonologik hamda eliziya, germinatsiya, metateza hodisalarini ko'rsatib berish va sonlarga oid so'zlardagi variantlilik hodisasi sabablarini tadqiq etish;

hindiy tilidagi sonlardan yasalgan so'zlarning shakllanishida sandhiy hodisasi borligini ko'rsatib berish va ularning modellarini ishlab chiqish;

hindiy tilidagi sonlardan yasalgan dvigu so'zlarini struktur-semantik jihatdan tahlil etib, mahsuldor qoliplarni belgilash;

hindiy tilidagi son komponentli frazeologik birliklarning semantik-struktur tasnifini amalga oshirish va mahsuldor qoliplarini aniqlash;

hindiy tilidagi numerativ so'zlarning etimologik jihatdan asoslab berish va ularning valentlik jihatlarni tadqiq etish hamda modellar ishlab chiqish;

hindiy tilidagi numerativ komponentli frazeologik birliklarni tahlil etish va mahsuldor qoliplarini aniqlash.

Tadqiqotning ob'yektini hindiy tilidagi son turkumiga oid so'zlar tashkil etadi. Tadqiqotga manba sifatida संस्कृत-श्लोक संग्रह: *Sanskrit-shlok sangrah:* ("Sanskritcha pandu-nasihatlari"), गाँधी जी की सूक्तियाँ *Gandhi: ji: ki: su:ktiya:n* ("Mahatma Gandhi o'gitlari"), Premchandning वरदान *Varda:n* ("Sevgi in'omi") romani, प्रेमचंद की सर्वश्रेष्ठ कहानियाँ *Premchand ki: sarvshreshth kaha:niya:n* ("Premchandning eng sara hikoyalari")dan foydalanildi. Ba'zi o'rinlarda hindiy tilidagi sonlarga xos so'zlarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish uchun 60-80-yillar materiallariga ham murojaat qilindi.

Tadqiqotning predmetini hindiy tilidagi sonlarga xos so'zlarning shakllanishi va rivojlanishida sodir bo'lgan turli fonetik jarayon va lingvistik hodisalalar hamda sonlardan hosil bo'lgan so'zlarning ko'lami va mahsuldorligi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. To'plangan materiallarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ular tarixiy, tavsifiy, qiyosiy, statistik va komponent tahlil metodlari asosida o'rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

hindiylidagi sonlarning shakllanishidagi o'ziga xos lingvistik xususiyatlar va sonlarning taraqqiyoti jarayonida yuz bergan fonetik o'zgarishlar atroflicha o'rganilishi natijasida qadimgi hind-oriy tillaridan o'rta hind-oriy tillari davriga o'tish jarayonida ba'zi undoshlar serebral tovushlarga, qisqa unli tovushlar cho'ziq unli tovushlarga o'zgarganligi, qadimgi hind-oriy tillari davrida shakllangan sonlarga oid so'zlardan farqli ravishda, o'rta hind-oriy tillari davriga xos bo'lgan apabharansha tilidagi sonlarga oid so'zlarning aksariyati, yangi hind-oriy tillari davriga kelib hech qanday fonetik o'zgarishsiz rivojlanganligi aniqlangan;

hindiylidagi son turkumiga oid so'zlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida morfonologik hamda eliziya, germinatsiya, metateza hodisalari yuz berganligi aniqlanib, sonlar tarkibida ligatura shakllari hosil bo'lganligi, fonetik variantga ega shakllar bilan bir qatorda dialektal variantga ega shakllar ham mavjud ekanligi va bunga asosiy sabab, hindiylining ikki tarmog'i, ya'ni sharqiy va g'arbiy hindiylar tarmoqlarining o'ziga xosliklari sonlarga xos so'zlarda ham namoyon bo'lganligi dalillangan;

hindiylidagi sonlardan yasalgan tatsama so'zlarining shakllanishida sandhiy hodisasi borligi isbotlangan va unli tovushlarda sandhiy hodisasining yuz berishi undosh tovushlarda yuz bergan sandhiy hodisasi nisbatan yetakchi o'rinni egallashi aniqlangan;

hindiylidagi sonlardan yasalgan dvigu so'zlari struktur-semantik jihatdan atroflicha o'rganilib, ular tatsama, tadbhava hamda gibril so'zlarga xosligi aniqlangan va tatsama guruhiga oid dvigu so'zlari tadbhava va gibril so'zlariga nisbatan yetakchi o'rinni egallashi isbotlangan;

hindiylidagi son komponentli frazeologik birliklar tahlil etilishi natijasida ular frazeologik butunlik, frazeologik qo'shilma va frazeologik chatishma kabi guruhlar taqsimlanib, turli modellar ishlab chiqilgan va birliklarga oid sonlar orasida "bir" sanoq sonidan yasalgan frazeologik birliklar uchala guruhda ham yetakchi o'rinda o'z ifodasini topganligi misollar talqinida aniqlangan;

hindiylidagi numerativlarning etimologiyasi va ularning valentlik jihatlari ochib berilib, omonimiya hodisasi tatsama tipiga oid numerativlarning shakllanishida ko'p sodir bo'lganligi aniqlangan hamda sonli birikmalar tarkibida sanoq sonlarga nisbatan valentlik xususiyatini anglatib kelayotgan numerativlarning mahsuldor qoliplari belgilangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hindiylidagi sonlarga xos so'zlarning shakllanishida turli allomorflar ham o'z ifodasini topganligi asoslab berilgan;

son komponentli dvigu so'zlari sandhiy hodisasi asosida shakllanganligi dalillangan;

dvigu so'zlarining shakllanishida tatsama va tadbhava tipiga oid so'zlar yetakchi o'rinda ekanligi ko'rsatib berilgan;

sonlarning shakllanishida dialektal variantlilik xususiyati ham mavjudligi aniqlangan va ularning sabablari asoslab berilgan;

numerativlarga xos so'zlar etimologik jihatdan tadqiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Ishda foydalanilgan tayanch tushunchalar asosida fundamental ilmiy va metodologik, maxsus adabiyotlarga tayanilgani, ashyoviy til materiali, tadqiqot yoʻnalishi va ilmiy izlanish mohiyatidan kelib chiqqan holda, tanlangan tadqiqot usullari, ilmiy tadqiqot natijalarining dissertatsiya nazariy konsepsiyasiga mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hind-oriy tillarining muayyan soʻz turkumidagi soʻz yasalishi tizimiga oid murakkab hodisalar mohiyatini belgilashda, hind-oriy tillarining oʻziga xos lingvistik xususiyatlarini tadqiq etishda, hind-oriy tillari soʻz yasalishidagi tamoyillarni oʻrganishda qimmatli dalillarni berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan “Hind-oriy tilshunosligiga kirish”, “Janubiy Osiyo tillari genezisi”, “Mutaxassislikning nazariy masalalari”, “Hindiy tili tarixi”, “Hindiy tilida sanskrit elementlari”, “Hindiy tili leksikologiyasi”, “Hindiy tili dialektologiyasi”, “Hindiy tili nazariy grammatikasi”, “Hindiy va oʻzbek tillarining chogʻishtirma grammatikasi” kabi oʻquv fanlaridan maʼruza matnlari, darslik va oʻquv qoʻllanmalar yaratishda hamda sharqshunos filologlar uchun maxsus kurslar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hindiy tilidagi sanoq tizimining shakllanishi va taraqqiyoti mavzusidagi tadqiqot yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

hindiy tilidagi sonlarga xos soʻzlarning shakllanish va rivojlanish tadqiqiga doir ilmiy-nazariy natijalardan I-204-4-5 raqamli “Ingliz tili mutaxassislik fanlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va oʻquv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida samarali foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2021-yil 20-apreldagi 870/30.02.01-son maʼlumotnomasi). Hind-oriy tillariga xos boʻlgan hindiy tilidagi numerativlar etimologik jihatdan atroflicha tahlil qilinishi natijasida ular orasida xorijiy tillardan, xususan, ingliz tilidan oʻzlashgan numerativlar ham mavjud ekanligi, hindiy tili leksikasiga ingliz tilidan oʻzlashgan numerativlar hozirda hindcha badiiy matnlarda ham koʻp qoʻllanilishi aniqlangan va natijada ularni tahlil etish ingliz tilidan oʻzlashgan ushbu soʻzlarning oʻziga xos ifodalanish jihatlarini chuqur oʻrganish imkonini bergan;

hindiy tilidagi sonlarning shakllanishidagi oʻziga xos lingvistik xususiyatlar tadqiq etilishi jarayonida olingan natijalardan Hindistonning Jamiya Milliya Islamiya universitetining Xorijiy tillar kafedrasida hamda “Oʻzbek tili va adabiyoti” tadqiqot markazi tomonidan oʻtkazilgan ilmiy vebinarida foydalanilgan (Hindiston Respublikasi Jamiya Milliya Islamiya universitetining 2023-yil 16-maydagi maʼlumotnomasi). Natijada hindiy tilidagi sonlarning shakllanishida yuz bergan fonetik oʻzgarishlarning oʻziga xos lingvistik xususiyatlari xususida atroflicha ilmiy maʼlumotlardan voqif boʻlingan. Shuningdek, hindiy va oʻzbek tillaridagi sonlarning oʻziga xos shakllanish jihatlariga doir nazariy qarashlardan lingvistika doirasida oʻqitiladigan maxsus fanlardan maʼruzalar tayyorlashda ham keng foydalanilgan;

hindiy tilidagi sonlarga xos soʻzlarning shakllanish tarixiga doir olingan natijalardan I-204-4-5 raqamli “Ingliz tili mutaxassislik fanlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va oʻquv jarayoniga

joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida samarali foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2021-yil 20-apreldagi 870/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Qadimgi hind-oriy tillari davridan to hozirgi yangi hind-oriy tillari davrigacha rivojlangan sonlarga xos soʻzlarning shakllanishida turli fonetik jarayonlar sodir boʻlganligi, ularning shakllanish jarayonida asosan unli va undosh tovushlar eliziya hodisasiga uchraganligi va natijada sonlar tarkibida oʻzgarishlar roʻy berganligiga oid nazariy qarashlardan lingvistika doirasida oʻqitiladigan maxsus fanlarni oʻqitishda keng foydalanilgan;

hindiy tilidagi numerativlarning etimologiyasi va ularning valentlik jihatlari ochib berilib, omonimiya hodisasi tatsama tipiga oid numerativlarning shakllanishida koʻp sodir boʻlganligi aniqlangan hamda sonli birikmalar tarkibida sanoq sonlarga nisbatan valentlik xususiyatini anglatib kelayotgan numerativlarning mahsuldor qoliplari belgilanganligiga oid takliflar Daniya Qirolligining Arxus universitetidagi “Hindiston va Janubiy Osiyo tadqiqotlari” kafedrasida hamda Daniyadagi Kopengagen universiteti va Shvetsiyadagi Uppsala universiteti hamkorligida oʻtkazilgan ilmiy vebinarida “Hind-oriy tillaridagi sonlarning rivojlanishiga doir baʼzi muammolar xususida” mavzusida ilmiy munozarada foydalanilgan (Daniya Qirolligi Arxus universitetining 2021-yil 25-iyundagi ma’lumotnomasi). Natijada, hindiy tilidagi sonlarning rivojlanishiga sanskrit, paliy, prakrit, apabharansha tillarining taʼsiri katta boʻlgani, oʻnliklarga oid sonlarning tarkibida turli xil birliklarga oid allomorflar mavjud ekanligi haqida, shuningdek, sonlar ishtirokida yasalgan dvigu soʻzlarining leksik jihatlari xususida atroflicha ilmiy ma’lumotga ega boʻlingan;

hind-oriy tillaridagi sonlarning oʻziga xos shakllanish xususiyatlariga oid nazariy fikrlardan, xususan, hindiy tilidagi sonlar ishtirokidagi frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlariga doir tahliliy fikrlardan “Oʻzbekiston” teleradiokanali DUK “Madaniy-maʼrifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Assalom, Oʻzbekiston!” va “Tungi bedor” radioeshittirishlarida foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” teleradiokanali davlat unitar korxonasi 2021-yil 9-apreldagi OʻZ/R-01-38-21-son ma’lumotnomasi). Natijada tilshunos olimlar va xorijiy tillarni oʻrganayotgan ixlosmandlar hindiy tilidagi sonlarning oʻziga xos jihatlardan voqif boʻlgan va ushbu ilmiy ma’lumotlar radioeshittirishlarning taʼsirchanligi va xalqchilligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 20 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 68 ta ilmiy ish: 1 ta monografiya, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 27 ta maqola, jumladan, 16 tasi respublika va 11 tasi chet el jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, toʻrt bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va ilmiy asarlar roʻyxatidan iborat boʻlib, umumiy hajmi 233 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va ob’yekti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e‘lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi ko‘rsatilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Sanoq tizimiga oid nazariy qarashlar”** deb nomlangan bo‘lib, unda sanoq tizimi doirasida olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan, tilshunos olimlar talqinidagi sonlarning morfologik xususiyatlari atroflicha o‘rganilgan, son turlariga doir istisno jihatlar tahlil qilingan, xalqaro raqamlarning kelib chiqishida hindcha raqamlarning ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Ta’kidlash joizki, dunyo tillariga xos sonlar doirasida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. R.T.Murotovaning monografik planda yozilgan tadqiqot ishida boshqird xalqi tilida, folklorida va mifologiyasida muqaddas sonlardan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari aniqlangan. Boshqird frazeologik birliklarining shakllanishida sonlarning unumdorligi tadqiq etilgan. O.G.Ibragimovning tadqiqot ishida darg‘in tilidagi sonlarga xos so‘zlar lingvistik aspektda o‘rganilgan. Sonlarning semantik jihatlari, til va sheva o‘rtasidagi farqlari aniqlangan. M.M.Raxmatovning tadqiqot ishida Abulqosim Firdavsiyning **“Shohnoma”** asaridagi sonlardan foydalanishning leksik tizimi tavsifi keltirilgan. Asarda qo‘llangan sonlarga xos birliklarning turli xil variantlari o‘rganilgan. **“Shohnoma”** asarida qo‘llangan sonlarning o‘ziga xosliklari zamonaviy tojik tilida qo‘llanadigan sonlar bilan qiyoslangan. B.Shondug tadqiqotida mo‘g‘ul, rus va ingliz tillaridagi sonlardan yasalgan frazeologik birliklar qiyosan o‘rganilgan. Sonlarning frazeologik birliklar tarkibidagi ishtiroki natijasida hosil bo‘ladigan o‘ziga xos lingvistik xususiyatlar tadqiq etilgan. Frazeologik birliklar tarkibidagi sonlarga xos so‘zlarning semantikasi yoritilgan. O‘zbek sharqshunosligida ham son va numerativlarga oid tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Sonlarning o‘ziga xos jihatlari sharq tillari misolida keng tadqiq etilgan. U.X.Mavlyanova o‘z tadqiqot ishida xitoy tilidagi son va uning morfologik xususiyatlarini tadqiq etish bilan birga sonlarning lingvomadaniyat jihatlarini ham atroflicha o‘rgangan. A.A.Karimovning tadqiqotida xitoy tilidagi hisob so‘zlarning leksik-semantik, struktural va funksional tahlili amalga oshirilgan. O.N.Shomatovning ilmiy tadqiqot ishlari garchi sonlar doirasida bo‘lmasada, Janubiy Hindistonning dakhiniy tilidagi sonning fonetik va morfologik xususiyatlari atroflicha o‘rganilgan. Shuningdek, D.R.Ahmedova tadqiqot ishining bir bo‘limida eron gazetalari matnlarida son turkumining o‘rni, uning uslubiy-funksional xususiyatlari o‘rganilgan²⁸.

²⁸Qarang: Муратова Р.Т. Символика чисел в башкирском языке: дисс.... канд. филол. наук. – Москва, 2009.; Ибрагимова Г.О. Числительное даргинского языка: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2004.; Рахматова М.М. Особенности употребления числительных в «Шахнаме» Абулкаси́ма Фирдоуси: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Худжанд, 2011.; Шондуг Б. Семантика числительных во фразеологии и монгольского, русского и английского языков: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2006.; Мавлянова У.Х. Хитой тилида сонларнинг семантикаси: лингвомаданий таҳлил: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)....ёзил . дисс. – Тошкент, 2020.; Каримов А.А. Хитой тилида ҳисоб сўзлар (лексик– семантик, структурал ва функционал таҳлил). –Т.: Фан ва технологиялар, 2003.; Шаматов А.Н. Адаптация иноязычных заимствований в

Rus hindshunos olimlarining son turkumining o'ziga xosligiga oid bildirgan fikr-mulohazalari orasida o'xshash va farqli jihatlar mavjudligi kuzatiladi. Rus tilshunosi Z.M.Dimshchning "Грамматика языка хинди"²⁹ nomli asarida hindiy tilida sonning sanoq, tartib, kasr, ko'paytiruv turlari mavjudligi sanab o'tilgan. Bularni A.P.Barannikov³⁰, T.Ye.Katenina³¹ kabi olimlar ham ta'kidlaganlar. Ammo, tilshunoslar G.A.Zograf³² hamda V.P.Liperovskiy³³ mazkur fikrlardan farqli ma'lumot beradi. Chunonchi, G.A.Zograf o'z asarida sonlarni alohida so'z turkumi deb tan olmay, ularni sifat turkumiga xos grammatik guruh, deb qayd etadi: "Yangi hind-oriy tillarida mavjud bo'lgan sonlar sanaluvchi shaxs, predmet yoki hodisalarning aniq miqdoriga yoki ularning ketma-ketlik tartibiga ishora qiluvchi grammatik guruhdir"³⁴. Uning talqinicha, sonlar semantik jihatdan birlashgan holdagi aniqlovchi so'zlarining "yarim yopiq" guruhidan iborat, ya'ni bu tabiiy raqam nomlarining ro'yxati demakdir. Hind grammatikalarida, jumladan, K.Guru va Abdulhaq grammatikalarida ham sonlarni odatda "miqdoriy sifatlar"ning kichik sinfi deb tushunilgan³⁵. V.P.Liperovskiy ham sonlarni valentlik xususiyatlariga ko'ra sifatlariga yaqin turadi, - deb ta'kidlaydi. Bu tartib sonlarga emas (आठवाँ पाठ *a:Thva:N pa:Th* "sakkizinchi dars", दसवीं पंक्ति *dasvi:N pankti* "o'ninchi qator"), balki sanoq sonlarga ham xos hisoblanadi. Ular sifatlar singari otlar bilan birikib, prepozitsiya holatida keladi (आठ पाठ *A:Th pa:Th* "sakkizta dars", दस पंक्तियाँ *das panktiya:N* "o'nta qator"). Uning yozishicha, sanoq sonlarning o'rnida keladigan ko'rsatuvchi shakllar ham tartib sonlar va sifatlar o'rnida keladigan shakllarga xos birikuvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi"³⁶.

Olimning bu talqiniga quyidagi misollarni keltiramiz: कितनी पंक्तियाँ? *kitni: panktiya:N?* "nechta qator?", दस पंक्तियाँ *das panktiya:N* "o'nta qator" yoki कौनसी पंक्तियाँ? *kaonsi: panktiya:N?* "nechanchi qatorlar?" दसवीं पंक्तियाँ *dasvi:N panktiya:N* "o'ninchi qatorlar" kabi misollar deytik shakllarga xos. कैसी पंक्तियाँ? *kaisi: panktiya:N?* "qanday qatorlar?", नीली पंक्तियाँ *ni:li: panktiya:N* "ko'k rangli qatorlar" kabi misollar esa substitut o'rindosh shaklidir. Biroq sanoq sonlar mavhum raqamlarni ko'rsatib kelsada, ayni paytda sifatlariga xos belgilarni ifoda etmaydi. Shuning uchun sonlarni sifatlar tarkibidagi oddiy, lekin kichik sinf deb bo'lmaydi.

лексической системе Южного Хиндустани (по памятникам XV – начала XVIII вв.): дисс. ... докт. филол. наук. – Москва, 1983. Ахмедова Д.Р. Фос тили сўз туркумларининг газета матнларидаги функционал ва услубий хусусиятлари: филол. фан. докт. (DSc) ... дисс.автореф. – Тошкент, 2020.

²⁹ Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т I. – М.: Наука главная редакция восточной литературы, 1986. – С.86-95.

³⁰ Баранников А.П. Краткий грамматической очерк хинди. Прил. к «Хинди-русский словарь». – М.: Издательство восточной литературы, 1959. –С.1145-1149.

³¹ Катенина Т.Е. Краткий очерк грамматики языка хинди. Приложение к «Русско-хинди словарю». – М.: Государственное издательство иностранных и национальных словарей, 1957. – С.1308-1310.

³² Зограф Г.А. Морфологический строй новых индоарийских языков (опыт структурно-типологического анализа). – М.: Наука главная редакция восточной литературы, 1976. – С. 143-146.

³³ Липеровский В.П. Именные части речи языка хинди. – М.: Наука главная редакция восточной литературы, 1978. – С.101-114

³⁴ Зограф Г.А. Морфологический строй новых индоарийских языков (опыт структурно-типологического анализа). – М.: Наука главная редакция восточной литературы, 1976. – С.143.

³⁵ Гуру К. Грамматика хинди. Часть I. Пер. с хинди Г.А. и Р.И.Баранниковых. Под ред. и с предисл. проф. Б.А.Ларина. – М.: Издательство иностранной литературы, 1957. – С.142.

³⁶ Липеровский В.П. Именные части речи языка хинди. – М.: Наука главная редакция восточной литературы, 1978. – С. 103.

Ko'rinadiki, rus hindshunos olimlaridan G.A.Zograf o'zining ilmiy-nazariy qarashlarida hindiy tilidagi sonlarni sifatlarga yaqin deb hisoblab, ularni alohida son so'z turkumi qatorida emas, balki sifat turkumiga oid deb hisoblaydi. Fikrimizcha, G.A.Zografning talqiniga qo'shilish biroz qiyin. Chunki sifat predmetning belgisini, son sanog'ini va tartibini bildiradi. Sonlarni sifatlarga qorishtirib bo'lmaydi. Demak, hindiy tilidagi sonlar morfologik jihatdan analitik usulda yasalganligini ta'kidlab o'tishimiz zarur.

Hindiy tilidagi istisno xususiyatiga ega sanoq va jamlovchi sonlar tahlil qilinishi natijasida sonlarga xos so'zlarning o'z ma'nosidan tashqari boshqa ma'no xususiyatlari ham borligi aniqlandi. Istisno xususiyatiga ega sonlarning rivojlanishida sanskrit tilining ta'siri katta bo'lgan. Tahlilga tortilgan so'zlarning shakllanishida qadimgi hind-oriy tillari davridan to yangi hind-oriy tillari davrigacha bo'lgan oraliqda turli xil fonetik o'zgarishlar sodir bo'lgan. Hindiy tilidagi sonlarga xos so'zlar rivojlanishida ularning tarkibida geminatsiya hodisasi yuz bergan. Ba'zi sonlarning shakllanishida jarangli tovushlar birikivi hosil bo'lgan. E'tiborli jihati shundaki, aksariyat hollarda bunday sonlar o'ziga birikib kelayotgan aniqlanmish bilan jins va sonda moslashmaydi.

Hozirda butun dunyo qo'llaydigan zamonaviy raqamlarning birinchi prototipi taxminan V asrlarda Hindistonda paydo bo'lgan. Aynan o'sha vaqtning o'zida nol ham ixtiro qilingan. Demak, Hindistonda nol V asrga kelib kashf etilgan va bu raqam Bakshali qo'lyozmasida ilk bor ko'rilgan. Hindistonning qadimgi yozuvi bo'lmish brahmida hozirgi xalqaro raqamlar ko'rinishi o'z aksini topgan. Miloddan avvalgi IV asrda Nanaghatdan topilgan tosh bitiglarida "2, 4, 6, 7 va 9" raqamlari uchraydi. Nasikdagi g'orlarda miloddan avvalgi I va II asrlarga tegishli tosh bitiglarda "2, 3, 4, 5, 6, 7 va 9" raqamlari uchraydi. Vaqt o'tishi bilan hind raqamlari ham ko'plab o'zgarishlarga uchradi. Hozirgi devanagari yozuvi raqamlari brahmi yozuvidagi raqamlarning rivojlanishidan yuzaga kelgan. Ushbu dalillar asosida shuni aytish mumkinki, hozirgi xalqaro raqamlar aslida hind raqamlarining shakli bo'lib, ular uzoq davr mobaynida Hindistondan boshqa hududlarga tarqalgan.

Tadqiqotning "**Hindiy tilida son turkumiga oid so'zlar evolyutsiyasi**" nomli ikkinchi bobida hind-oriy tillarining shakllanish bosqichlari, hindiy tilidagi birlik sonlarning shakllanishi, o'nliklarga oid sonlarda yuz bergan morfonologik o'zgarishlar, tartib sonlarning shakllanishida yuz bergan morfonologik o'zgarishlar va kasr sonlarning etimologik tahlili atroflicha o'rganilgan.

Hind-oriy tillari Hindistonninggina emas, balki dunyo tillari orasida kuchli va rivojlangan tillardan hisoblanadi. Ilmiy nuqtayi nazardan bu tillar juda qadimgi tillardan kelib chiqqan. Olimlar ushbu tillarni uchta katta guruhga bo'lib o'rgangan. 1) Qadimgi hind-oriy tillari (vedik sanskrit, sanskrit)³⁷; 2) O'rta hind-oriy tillari (paliy, prakritlar va apabharansha)³⁸; 3) Yangi hind-oriy tillari (hindiy, gujarotiy, marathiy, bengaliy va hokazo)³⁹. Hind-oriy tillarining shakllanish va rivojlanish davrlari olimlar tomonidan quyidagicha taqsimlangan. 1) Qadimgi hind-oriy tillari (eramizdan avvalgi 1500-yildan eramizdan avvalgi 500-yilgacha); 2) O'rta hind-oriy tillari (eramizdan avvalgi

³⁷ Захарьин Б.А. Введение в историю языка хинди. – М.: Издательство Московского университета, 1978. – С. 17.

³⁸ Вертаградова В.В. Праkritы. – М.: Наука, 1978. – С. 21.

³⁹ Зограф Г.А. Языки Индии, Пакистана, Цейлона и Непала. – М.: Издательство восточной литературы, 1960. – С. 34.

500-yildan melodiylar 1000-yilgacha); 3) Yangi hind-oriy tillari (melodiylar 1000-yildan to hozirgacha)⁴⁰.

Yangi hind-oriy tillariga xos bo'lgan hindiy tilidagi sonlarga oid so'zlar qadimgi va o'rta hind-oriy tillari davrida qanday shaklda bo'lganligi va hozirgi adabiy hindiyga kelib qanday shakllar yuzaga kelganligi muhim ahamiyatga ega.

Son turlari orasida keng tarqalgan va nutq jarayonida ko'p qo'llanadigan shakl bu sanoq sonlardir. Olimlarning talqinicha, एक *ek* "bir" sanoq soniga xos bo'lgan so'z tarkibida tovush o'zgarishi natijasida u o'rta hind-oriy tillariga o'tganida o'ziga qadimgi hind-oriy tillaridagi एअ *ea* shaklini olgan. Shuningdek, एक *ek* so'zsida undosh tovush क *k* ning saqlab qolingani shakli ham uchraydi. Fikrimizcha, bu yerda tatsama shakli keng qo'llanishi ta'sirida bu shakl sodir bo'lgan. D.Varmaning fikricha⁴¹, एक *eka* "bir" sanoq soni prakritda एक्क *ekka*, sanskritda esa एक *eka* shaklida bo'lgan. Negizi एक *ek* ga ega bo'lgan so'zlarda एक *ek* o'z ko'rinishini yo'qotgan. Masalan: ग्यारह *gya:rah* "o'n bir" sonidagi ग्या- *gya:-* qismi prakritdagi एगा *ega:* shaklining ta'siri ostida shakllangan. Sanskritdagi एकादश *eka:dash* "o'n bir" shaklidagi आ *a:* tovushi, द्वादश *dva:dash* ning ta'siri ostida paydo bo'lgan. Nazarimizda, bu yerdagi आ *a:* tovushi avval prakritga, so'ng hindiyga kirib kelgan. Murakkab sonlar bilan qo'shilganda ए *e* tovushi ई *i* tovushiga aylangan: इक्कीस *ikki:s* "yigirma bir", इक्कीस *ikti:s* "o'ttiz bir".

Sanskrit tilidan quyidagi misolni keltirishimiz mumkin: एक विद्वत्त्वं च नृपत्वं च नैव तुल्यं कदाचन । स्वदेशे पूज्यते राजा विद्वान् सर्वत्र पूज्यते ॥⁴² *Eka vidvatvam cha nripatvam cha naiv tulyam kada:chan. Svadeshe pu:vyate ra:ja: vidva:n sarvatra pu:vyate.* "Bir olim bilan biron bir Rojani hech qanaqasiga taqqoslab bo'lmaydi. Chunki, Roja o'z saltanati yerida hurmatga sazavor. Olim odam qayerga bormasin, u hamma joyda hurmat topadi". Paliy tilida: एक मग्ग *eka magga* "bir yo'l", एक चित्त *eka chitta* "bir (bitta) rasm", एक अभिलासा *eka abhila:sa:* "bir orzu"⁴³. Prakritlarda: एक्क अविहद *ekka avihad* "bir bolakay", एक्क अविहाविअ *ekka aviha:via* "bir kambag'al, nochor", एक्क अन्वा *ekka avva:* "bir onaizor". Apabharanshada: एक्क कूर *ekka kur* "bir ot", एक्क कूल *ekka kul* "bir qirg'oq", एक्क कूव *ekka kuv* "bir qirg'oq". Hindiy tilida: बोलना एक सुन्दर कला है; मौन उससे भी ऊँची कला है⁴⁴ । *Bolna: ek sundar kala: hai. Maun use bhi: u:nchi: kala: hai.* "Nutq - bu bir go'zal san'at, sukunat - undan-da oliy san'at".

⁴⁰ दीपचन्द्र जैन, कैलाश तिवारी। हिन्दी और उसकी विविध बोलियाँ। - भोपाल, मध्यप्रदेश हिन्दी ग्रंथ अकादमी, 1972. - पृ। 15.

⁴¹ धीरेंद्र वर्मा। हिन्दी भाषा का विकास। - प्रयाग, हिन्दुस्तानी एकेडेमी, 1962. - पृ। 267.

⁴² संस्कृत-श्लोकसंग्रहः - पृ। 46.

⁴³ O'rta hind-oriy tillariga xos paliy, prakrit va apabharansha tillariga oid misollar quyidagi lug'atlardan olindi: पालि-हिन्दी कोशा। - नागपुर, सुगत प्रकाशन, 1989. - 367 पृ; प्राकृत-हिन्दी कोशा। - जयपुर, प्राकृत भारती अकादमी, 1987. - 1328 पृ; अपभ्रंश-हिन्दी कोशा। - गाज़ियाबाद, तथागत प्रिंटिंग प्रेस, 1964. - 550 पृ।

⁴⁴ गाँधी जी की सूक्तियाँ। ठाकुर राजबहादुर सिंह (संपादक)। - दिल्ली, 1998. - पृ। 75.

*Hindiy tilidagi birliklarga oid soʻzlarning shakllanishi quyidagi
jadvalda aks ettirilgan:*

Birliklar	Sanskritda	Paliyda	Prakritlarda	Apabharanshada	Hindiyda
bir	एक <i>eka</i>	एक <i>eka</i>	एक <i>ekka</i>	एक <i>ekka</i>	एक <i>ek</i>
ikki	द्वौ <i>dvau</i>	दो <i>do</i> (द्वे <i>dve</i> , दुवे <i>duve</i>)	दो <i>do</i>	दो <i>do</i>	दो <i>do</i>
uch	त्रीणि <i>tri:ni</i>	तीणि <i>ti:ni</i>	तीणि <i>ti:nni</i>	तीणि <i>ti:nni</i>	तीन <i>ti:n</i>
toʻrt	चत्वारि <i>chatva:ri</i>	चत्तारि <i>chatta:ri</i>	चत्तारि <i>chatta:ri</i>	चारि <i>cha:ri</i>	चार <i>cha:r</i>
besht	पंच <i>pancha</i>	पंच <i>pancha</i>	पंच <i>pancha</i>	पंच <i>pancha</i>	पाँच <i>pa:nch</i>
olti	षट् <i>shaT</i> (षष् <i>shash</i>)	छ <i>cha</i>	छ <i>cha</i>	छ <i>cha</i>	छ: <i>che</i>
yetti	सप्त <i>sapta</i>	सत्त <i>satta</i>	सत्त <i>satta</i>	सत्त <i>satta</i>	सात <i>sa:t</i>
sakkiz	अष्ट <i>ashta</i>	अट्ट <i>attha</i>	अट्ट <i>attha</i>	अट्ट <i>attha</i>	आठ <i>a:Th</i>
toʻqqiz	नव <i>nava</i>	नव <i>nava</i>	नव <i>nava</i>	नव <i>nava</i>	नौ <i>nao</i>

Oʻnliklarga xos boʻlgan दस *das* “oʻn” sanoq soni qadimgi hind-oriy tillariga xos boʻlgan vedik sanskrit tilida दश *dasha*, sanskrit tilida ham दश *dasha* shaklida ifodalangan. Oʻrta hind-oriy tillari davrida rivojlangan paliy tilida दस *dasa*, prakritda esa dastavval दस *das*, keyinchalik दह *dah*, डह *Dah*, रह *rah*, लह *lah* shakllariga ega boʻlgan. Apabharansha tilida ham दस *das* shaklida qoʻllangan. Hindiy tilida esa दस *das*, shuningdek, uning maʼnosini anglatuvchi bir necha shakllari ham mavjud. Ushbu sonning koʻrinishlari quyidagi soʻzlarda oʻz aksini topgan: दस *das* – दसवाँ *dasva:* N “oʻninchi”, दसौ *dasoN* “oʻnlab”; दह *dah* – चौदह *chaudah* “oʻn toʻrt”, दहला *dahla:* “oʻn (turli xil oʻyinlarda)”, दहाई *daha:i:* “oʻn raqami”, दहाना *daha:na:* “diametr”; रह *rah* – ग्यारह *gyara:h* “oʻn bir”, बारह *ba:rah* “oʻn ikki”, तेरह *tera:h* “oʻn uch”, सत्रह *sattrah* “oʻn toʻrt”, अट्ठारह *aTTha:rah* “oʻn sakkiz”; लह *lah* – सोलह *solah* “oʻn olti”; द्रह *drah* – पन्द्रह *pandrah* “oʻn besh” va hokazo .

Bu shakllarning barchasi prakritlar davridan beri qoʻllanib kelmoqda. D.Varma prakrit tillariga xos boʻlgan द *d* tovushining र *r* tovushiga aylanganlik sabablari aniq emas, deb taʼkidlaydi . Fikrimizcha, prakritdagi र *r* va boshqa shunga oʻxshash tovushlarning taʼsiri natijasida द *d* ning ड *D* shakli yuzaga kelgan. Biroq anʼanaviy shakldagi serebrallashuv natijasida ham द *d* tovushi ड *D* ga oʻzgargan. द *d*, ड *D*, ङ *R*, र *r* tovushlarida ham shunday holat bor. Sanskrit tilidan quyidagi misolni keltirishimiz mumkin:

अन्यायोपार्जितं वित्तं दशवर्षाणि तिष्ठति। प्राप्ते चैकादशेवर्षे समूलं तद् विनश्यति⁴⁵ ॥
Anya:yopa:rjitam vittam dashavarsha:ni tishthati. Prapte chaika:dashevarshe samulam tad vinshyati “Notoʻgʻri va noqonuniy yoʻl bilan topilgan boylik oʻn yilgacha turishi mumkin. Ammo oʻn birinchi yili bunday boylik kishini qarz-havolaga kiritgan holda yoʻq boʻlib ketadi”. Paliy tilida: दस आबाधिक *dasa a:b:dhik* “oʻnta bemor odam”, दस

⁴⁵ संस्कृत-श्लोकसंग्रहः – पृ। 74.

आमिस *dasa a:mis* “o‘n xil taom”, दस इभ *dasa ibh* “o‘nta fil”. Prakritlarda: दस चिल्ल *dasa chilla* “o‘nta o‘quvchi”, दस चिलाअ *dasa chila:a*, “o‘nta xizmatkor”, दस अत्थारिय *dasa attha:riya* “o‘nta xodim”. Apabharanshada: दस गुलिया *dasa guliya*: “o‘n xil shirinlik”, दस गुहा *dasa guha*: “o‘nta g‘or”, दस गुणिआ *dasa gunia*: “o‘nta ziyoli shaxs”.

Hindiy tilidagi o‘nliklarga oid so‘zlarning shakllanishi quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

O‘nliklar	Sanskritda	Paliyda	Prakritlarda	Apabharanshada	Hindiyda
o‘n	दश <i>dasha</i>	दस <i>dasa</i>	दस <i>das</i> दह <i>dah</i> डह <i>Dah</i> रह <i>rah</i> लह <i>lah</i>	दस <i>das</i>	दस <i>das</i>
yigirma	विंशति <i>vinshati</i>	वीसति <i>vi:sati</i>	वीसइ <i>vi:sai</i>	वीस <i>vi:s</i>	बीस <i>bi:s</i>
o‘ttiz	त्रिंशत् <i>trinshat</i>	तिंसति <i>tinsati</i>	तीस <i>ti:s</i>	तीस <i>ti:s</i>	तीस <i>ti:s</i>
qirq	चत्वारिंशत् <i>chatva:rin-shat</i>	चत्ताळीसति <i>chattaLisati</i> चत्ताळीस <i>chatta:Li:s</i>	चत्तालीस <i>chatta:li:s</i>	चालीस <i>cha:li:s</i> चालिस <i>cha:lis</i>	चालिस <i>cha:lis</i>
ellik	पंचाशत् <i>panchashat</i>	पंचासा <i>ancha:sa:</i> पञ्जासा <i>paNNa:sa:</i>	पंचास <i>panchasa</i>	पंचास <i>panchasa</i>	पचास <i>pachas</i>
oltmish	षष्टि <i>shashTi</i>	सट्ठि <i>saTThi</i>	सट्ठि <i>saThThi</i>	सट्ठि <i>saThThi</i> सट्ठु <i>saTTha</i>	साठ <i>saTh</i>
yetmish	सप्तति <i>saptati</i>	सत्तति <i>sattati</i> सत्तरि <i>sattari</i>	सत्तरि <i>sattari</i>	सत्तरि <i>sattari</i> सत्तर <i>sattar</i>	सत्तर <i>sattar</i>
sakson	अशीति <i>ashi:ti</i>	असीति <i>asi:ti</i>	असीइ <i>asi:i</i>	असी <i>asi:</i> अस्सी <i>assi:</i>	अस्सी <i>assi:</i>
to‘qson	नवति <i>navati</i>	नवति <i>navati</i> नवुति <i>navuti</i>	णवइ <i>navai</i>	णवइ <i>navai</i> णवदि <i>navadi</i>	नव्वे <i>navve</i> नव्वे <i>nabbe</i>

सौ *sao* “yuz” soniga xos bo‘lgan so‘z, vedik sanskrit tilida शत *shat*, sanskrit tilida ham शत *shat*, paliyda esa सत्त *sat*, prakrit tillarida सअ *sa*, सय *say* va सै *see* shakllari hosil bo‘lgan⁴⁶. Apabharansha tilida esa सउ *sau* va hozirgi hindiy adabiy tiliga kelib सौ *sao* shakli yuzaga kelgan. Ta’kidlash joizki, hindiy tilining ba’zi shevalarida सै *sey* shakli ham qo‘llanadi. Hindiy tilida keng tarqalgan सैकडा *seykRa:* shaklida ham bu shakl o‘z aksini topgan. सैकडा *seykRa:* shakli sanskrit tilidagi शतकृत *shatkrit* dan kelib chiqqan. Ushbu so‘zda o‘rta hind-oriy tillariga xos bo‘lgan सै *sey* shakli saqlangan va ऐ *ey* diftongidan so‘ng कडा *kaRa:* qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan.

Qadimgi sanskrit tilida quyidagi misolni berishimiz mumkin: गच्छन् पिपिलिको याति योजनानां शतान्यपि । अगच्छन् वैनतेयः पदमेकं न गच्छति⁴⁷ ॥ *Gachchan pipiliko ya:ti yojna:nan shata:nyapi. Agachchan venteyah padmenk na gachchati.* “Uzluksiz

⁴⁶ हरदेव बाहरी। भाषा का विकास। - दिल्ली, 1992. - पृ। 164.

⁴⁷ संस्कृत-सूक्ति-संग्रहः - लखनऊ, अखिल भारतीय संस्कृत परिषद् 1962. - पृ। 32.

harakatlanuvchi chumoli yuzlab masofani bosib o'tadi, ammo harakatsiz burgut bir qadam ham oldinga siljiy olmaydi". Hozirgi hindiy adabiy tilida ham ushbu so'z qo'llansa-da, lekin सौ *sao* shakli nisbatan keng qo'llanadi.

Hindiy tilidagi tartib sonlarning rivojlanishida boshqa son turlarining shakllanish bosqichlari kabi ularga qadimgi va o'rta hind-oriy tillarining ta'siri kuchli bo'lgan. Ayniqsa, hindiy tilidagi istisno xususiyatiga ega bo'lgan पहला *pehla*: "birinchi", दूसरा *du:sra*: "ikkinchi", तीसरा *ti:sra*: "uchinchi", चौथा *chautha*: "to'rtinchi" va छठा *chhatha*: "oltinchi" kabi tartib sonlarga xos so'zlarning shakllanishida ular tarkibida turli xil morfonologik hodisalar yuz berganligi kuzatiladi. Hindiy tilidagi पहला *pehla*: "birinchi" tartib soni प्रथिल *prathil* shaklidan kelib chiqqan bo'lib, u turli xil bosqichlardan o'tib पहला *pehla*: shakliga ega bo'lgan. Morfonologiya hodisasi yuz berishi natijasida hozirgi hindiy adabiy tiliga kelib, ushbu so'z tarkibida प्र *pra* ligatura shaklida qo'llangan प *p* hamda ushbu so'z tarkibidagi ल *l* tovushlari saqlangan. Ta'kidlash joizki, hozirda ham hindiy adabiy tilida sanskritcha shakl hisoblanmish प्रथम *pratham* so'zi asosan tatsama so'zlari bilan keng qo'llanadi. दूसरा *du:sra*: "ikkinchi" va तीसरा *ti:sra*: "uchinchi" kabi tartib sonlar ma'nosini anglatuvchi so'zlarda ham morfonologiya hodisasi yuz bergan. दूसरा *du:sra*: "ikkinchi" tartib soni dastavval द्वितीय *dviti:y* shaklida qo'llanilgan bo'lsa-da, तीसरा *ti:sra*: "uchinchi" tartib sonining shakllanishiga o'xshab uning rivojlanishiga ham -सृ- *-sri-* affiksining ta'siri bo'lgan. "Uchinchi" tartib soni तृतीय *triti:y*, तिसृतीय *tisriti:y*, तिसृतीयकः *tisriti:yakah* shakllarida rivojlangan. Ushbu so'zlar tarkibida ham -सृ- *-sri-* affiksi ishtirok etgan bo'lib, morfonologiya hodisasi yuz berishi natijasida ushbu so'z -सरा *-sra*: affiksiga aylangan. Tartib sonni anglatuvchi ushbu affiks yordamida istisno xususiyatiga ega bo'lgan "ikkinchi" hamda "uchinchi" tartib sonlari shakllangan.

Hindiy tilidagi istisno xususiyatiga ega bo'lgan चौथा *chautha*: "to'rtinchi" va छठा *chhatha*: "oltinchi" ma'nosini anglatuvchi tartib sonlar qadimgi va o'rta hind-oriy tillari davrida o'ziga xos ravishda rivojlangani bilan qolgan tartib sonlardan farq qiladi. Ushbu sonlarga xos so'zlar qadimgi hind-oriy tillaridan to yangi hind-oriy tillarigacha rivojlanishi jarayonida ular tarkibida थ *tha* va ठ *Tha* kabi serebral tovushlar saqlangan. Ta'kidlash joizki, ushbu tartib sonlarga xos bo'lgan so'zlar tarkibidagi unli va undosh tovushlar morfonologiya hodisasi tufayli qisqargan bo'lsa-da, lekin ulardagi serebral tovushlar saqlanib qolgan. Hozirgi hindiy adabiy tilida ushbu tartib sonlar bilan birgalikda qadimgi sanskritcha shakllar ham keng qo'llanadi.

Hindiy tilidagi kasr sonlarga oid so'zlar qadimgi hind-oriy tillari davridan o'rta va yangi hind-oriy tillari davriga o'tish jarayonida turli fonetik o'zgarishlarga uchragan. Ba'zi kasr sonlarga xos so'zlarning ikkitadan shakli ham mavjud va ular hozirda keng qo'llanadi. E'tiborli jihati shundaki, ba'zi kasr sonlarning shakllanishida metateza hodisasi ham sodir bo'lgan. Masalan, yangi hind-oriy tillariga xos bo'lgan hindiy tilidagi डेढ़ *DeRh* "bir yarim" kasr soniga oid so'zning kelib chiqishini D.Varma sanskrit tilidagi

द्वयर्द्ध *dvayardh*, prakritlardagi दिअड्ढ *diaDDh* shakli bilan bog‘laydi⁴⁸. U.Tivariy esa ushbu kasr sonining shakllanishini sanskrit tilidagi द्वि-अर्द्ध + क *dvi-arddh + k*, prakritcha डि-अड्ढ-अ *Di-aDDh-a* → ज्योढा *DyoRha:*, डेढ *DeRh* kabi so‘zlar bilan bog‘laydi⁴⁹. Yana bir nazariy qarashga ko‘ra, ushbu kasr son sanskritcha अर्ध *ardh* + द्वितीय *dviti:ya*, prakritcha अड्ढुइए *aDDhaduie*, metateza hodisasiga ko‘ra दुइअड्ढुए *duiaDDhae* shakllaridan hosil bo‘lgan. Tahlil natijalariga ko‘ra ushbu kasr son sanskritdagi द्विकार्द्ध *dvika:rdh*, prakritlardagi दिवड्ढ *divaDDh*, apabharanshaidagi डिअड्ढ *DiaDDh* shakllari orqali hindiy tiliga डेढ *DeRh* shaklida o‘tgan. Prakritlarga xos bo‘lgan दुग *dug*, दुय *duy*, sanskritdagi द्विक *dvik* shakllari bu fikrga asos bo‘la olishi mumkin. डेढा *DeRha:* shakli esa द्विकार्द्ध *dvika:rdh* + क *k* tovushiga xos ekanligini ham ta’kidlash darkor.

Tadqiqotning “**Hindiy tilidagi son turkumiga oid so‘zlarning lisoniy tadqiqi**” deb nomlangan uchunchi bobida hindiy tili sanoq sonlaridagi variantlilik hodisasi, sinonimiya va omonimiya hodisasi, sonlardan yasalgan so‘zlardagi sandhiy hodisasi, birliklarga oid sonlardan yasalgan dvigu so‘zlarining struktur-semantik hamda son komponentli frazeologik birliklarning semantik-struktur xususiyatlari tadqiq etilgan.

Lingvistik tahlil - til, nutq birliklarini uni tashkil etuvchi qismlari, mazmuni, vazifasi va boshqa xususiyatlari nuqtayi nazaridan tadqiq etish, shu nuqtayi nazardan til birliklarining aniq holatini belgilash demakdir. Variantlilik hodisasi boshqa tillardagi leksik birliklarda bo‘lgani kabi hindiy tilida ham keng rivoj topgan. Hindiy tilidagi sonlarga xos leksik birliklar tarkibidagi variantlilik hodisasi tadqiq etilishi e’tiborga molikdir.

Hindiy tilidagi एक *ek* “bir”dan सौ *sao* “yuz”gacha bo‘lgan sanoq sonlarga xos so‘zlar o‘ziga xos variantlilik xususiyatlariga ko‘ra turli xil guruhlarga bo‘linadi. Tahlil jarayonlariga ko‘ra sanoq sonlarga xos so‘zlar tarkibida bitta variantga ega bo‘lgan so‘zlar bilan birgalikda, ikki yoki uch variantga ega bo‘lgan so‘zlar qatori ham bor. Shuningdek, to‘rt va undan ortiq variantlar qatoriga xos bo‘lgan so‘zlar mavjud. Jumaldan, sanoq sonlarga oid uchta variantga ega misollarning o‘ziga xos ifodalanish jihatlari quyidagi misollarda o‘z aksini topgan:

छह *chah*, छः *che*, छ *cha* “olti”; पंद्रह *pandrah*, पन्द्रह *pandarah*, पन्द्रा *pandra:* “o‘n besh”; अठारह *aTha:rah*, अट्टारह *aTTha:rah*, अठारा *aTha:ra:* “o‘n sakkiz”; चौबीस *chaobi:s*, चउबिस *chaubis*, चौबिस *chaobis* “yigirma to‘rt”; पच्चीस *pachchi:s*, पच्चिस *pachchis*, पचीस *pachchis* “yigirma besh”; तैंतीस *teyNti:s*, तैंतीस *teNti:s*, तयँतिस *tayaNtis* “o‘ttiz uch”; पैँतीस *peyNti:s*, पैँतिस *peyntis*, पयँतिस *payantis* “o‘ttiz besh”; सैंतीस *seyNti:s*, सैंतिस *seyNtis*, सेंतीस⁵⁰ *seNti:s* “o‘ttiz yetti”; इकतालीस *ikta:li:s*, एकतालीस *ekta:li:s*, इकतालिस *ikta:lis* “qirq bir”; चवालीस *chava:li:s*, चौवालीस *chaova:li:s*, चौवालिस *chaova:lis* “qirq to‘rt”; सतावन *sata:van*, सत्तावन *satta:van*, संतावन *santa:van* “ellik yetti”; अठावन *aTha:van*, अट्टावन *aTTha:van*, अंठावन

⁴⁸ धीरेंद्र वर्मा। हिन्दी भाषा का विकास। – प्रयाग, हिन्दुस्तानी एकेडेमी, 1962. – पृ। 272.

⁴⁹ उदयनारायण तिवारी। हिन्दी भाषा का उद्गम और विकास। – प्रयाग, भारती भंडार लीडर प्रेस, 1955. – पृ। 448.

⁵⁰ आदर्श हिन्दी शब्दकोश। – वाराणसी, भार्गव बुकडिपो, 1972. – पृ। 215.

aNTha:van “*ellik sakkiz*”; उनसठ *unsaTh*, ओनसठ *onsaTh*, गुन्सठ *gunsaTh* “*ellik to‘qqiz*”; इकसठ *iksaTh*, एकसठ *eksaTh*, इक्सठ *iksaTh* “*oltmish bir*”; तिरसठ *tirsaTh*, त्रेसठ *tresath*, तिरेसठ *tiresath* “*oltmish uch*”; इकहत्तर *ikhattar*, एकहत्तर *ekhattar*, खत्तर *khattar* “*yetmish bir*”; पचहत्तर *pachattar*, पिचहत्तर *pichattar*, पिछत्तर *pichattar* “*yetmish besh*”; उनासी *una:si:*, उन्यासी *unya:si:*, गुन्यासी *gunya:si:* “*yetmish to‘qqiz*”; पचासी *pacha:si:*, पिच्चासी *pichcha:si:*, पच्चासी *pachcha:si:* “*sakson besh*”; नब्बे *nabbe*, नब्बे *navve*, नब्बे *nabbhe* “*to‘qson*”; इक्यानवे *ikya:nve*, इक्यानबे *ikya:nbe*, इक्कानबे *ikka:nbe* “*to‘qson bir*”, सतानवे *sata:nve*, सतानबे *sata:nbe*, संतानबे *santa:nbe* “*to‘qson yetti*”.

Uchta variantga ega bo‘lgan misollarning deyarli bari (“olti” sanoq sonidan tashqari) o‘nliklarga xos. Ikkita variantga ega bo‘lgan misollardan farqli o‘laroq, tahlil qilingan misollarning uchta variantidan ikkita variantida yopiqlik holati kuzatilsa, bitta variantida ochiqlik holati kuzatiladi (पंद्रह *pandrah*, पन्द्रह *pandarah*, पन्द्रा *pandra:* “*o‘n besh*”; अठारह *aTha:rah*, अट्टारह *aTTha:rah*, अठारा *aTha:ra:* “*o‘n sakkiz*”). Shuni ham ta’kidlash joizki, uchta variantga ega bo‘lgan sanoq sonlarga xos so‘zlar tarkibida ligatura shakliga ega bo‘lganlari ham bor: (सतावन *sata:van*, सत्तावन *satta:van*, संतावन *santa:van* “*ellik yetti*”; अठावन *aTha:van*, अट्टावन *aTTha:van*, अंठावन *aNTha:van* “*ellik sakkiz*” va hokazo).

Hind-oriy tillariga mansub bo‘lgan hindiy tilidagi sonlarga oid sinonim so‘zlar o‘ziga xos ravishda shakllangan bo‘lib, ular asosan tartib, kasr hamda jamlovchi son turlarida uchraydi. Hozirgi hindiy adabiy tilidagi sonlarga doir leksik sinonimlar qatorida qadimgi sanskrit tilidagi shakllar ham keng qo‘llanadi. Kasr sonlarga oid sinonim so‘zlarlarning o‘ziga xosligi shundaki, tartib sonlar fonetik o‘zgarishlarga uchrasa, bu son turidagi so‘zlarda garchi ochiq bo‘g‘inga tugash holati kuzatilsa-da, ular o‘z shaklini saqlab qoladi. Ushbu sonlar qatorida tadbhava so‘zlari yetakchi o‘rinni egallagan, tatsama so‘zlari nisbatan ozchilikni tashkil etadi. Jamlovchi sonlarga oid sinonim yoki dublet so‘zlar ham o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Faqatgina “ikkovi, ikkalasi” jamlovchi sonining ham tatsama (उभय *ubhay*), ham tadbhava (दोनो *donon*) shakllari mavjud. Qolgan jamlovchi sonlar tadbhava tipiga oid so‘zlarni tashkil etadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, jamlovchi sonlar ma’nosini anglatib kelayotgan sinonim so‘zlar qatorida sanoq sonlarga oid so‘zlar ham ishtirok etib, ilmiy manbalarda ular jamlovchi son ma’nosida keng qo‘llanishi ta’kidlangan. Ushbu son turiga oid dublet so‘zlar ham gap tarkibida qo‘llanganda, o‘z shaklini saqlab qolishi bilan tartib sonlarga oid so‘zlardan farqlanadi.

Hindiy tilidagi sonlarga xos so‘zlarda omonimiya hodisasi ham uchraydi. Ular sonlarga xos so‘zlardan iborat bo‘lishi bilan birga, ikkinchi ma’nosi ot turkumiga xos. Sonlarga xos so‘zlar turli guruhlariga oid. Ular orasida numerativlarga oid omonimlar guruhi yetakchi bo‘lib, NS(O)=OS modelini hosil qiladi. Ayrimlari sanoq son ma’nosini anglatib kelishi bilan birga, ikkinchi ma’nosi mustaqil so‘z turkumlariga doir so‘zlar majmuasini emas, balki fe’lga oid grammatik kategoriyaga xos bo‘lgan buyruq maylini anglatib keladi. Uning modeli SS (BM) = OS formulasiga mos. Birlilik va o‘nliklarga oid sonlarga oid so‘zlardan tashqari yirik sonlar tarkibida ham omonimiya hodisasi mavjud. Ayniqsa, ular qadimgi sanskrit tilida yirik sonlar ma’nosini anglatgan bo‘lsa, keyinchalik ular yangi hind-oriy tillariga kelib sifat va ot so‘z turkumiga oid leksik birliklar

ma'nosini ham bera boshlagan. Qadimgi sanskrit tilidagi sonlar hozirda ham keng qo'llanib, ikki yoki uch xil ma'noga ega: (सत्ता *satta*: "yetti" (sanoq son), सत्ता *satta*: "suverenitet", सत्ता *satta*: "kuch"). Garchi, mazkur so'zlar tatsama tipiga oid sonlar hisoblansa-da, bunday so'zlar hindiy adabiy tilida ham qo'llanadi. Shuningdek, sonlarga xos omonim so'zlar orasida tadbhava tipiga oid so'zlar ham yetakchi o'rinni tashkil etadi.

Hind-oriy tillari guruhiga oid hindiy tili leksikasidagi aksariyat so'zlar qadimgi hind-oriy tillariga xos bo'lgan sanskrit tilidan kelib chiqqan. Ushbu bobda sandhiy hodisasining o'ziga xos xususiyatlari dvigu so'zlari⁵¹, ya'ni birinchi komponenti sonlardan, ikkinchi komponenti esa ot, sifat yoki ba'zi hollarda affiksial morfemalardan yasalgan so'zlar tahlil qilindi.

Sandhiy hodisasi asosan quyidagi uch qoidaga muvofiq yuz beradi: 1) unli tovushlarda sandhiy hodisasi (biron bir so'zning yoki morfemaning oxirgi unli tovushi biron bir so'zning yoki morfemaning birinchi unli tovushi bilan qo'shilishi natijasida sodir bo'ladi); 2) undosh tovushlarda sandhiy hodisasi (biron bir so'zning yoki morfemaning oxirgi undosh tovushi biron bir so'zning yoki morfemaning birinchi undosh yoki unli tovushi bilan qo'shilishi natijasida sodir bo'ladi); 3) visarga tovushida sandhiy hodisasi (visargadan so'ng unli va undosh tovushlarning kelishi natijasida sodir bo'ladi)⁵². Tahlil natijalariga ko'ra dvigu so'zlaridagi unli tovushlarda sandhiy hodisasi etkachi o'rinni egallaydi. Masalan, quyidagi misollar ikki komponentdan tashkil topgan bo'lib, ular tarkibidagi birinchi so'zning so'nggi qisqa अ [a] tovushi, ikkinchi so'zning birinchi qisqa अ [a] tovushiga qo'shilishi natijasida sandhiy hodisasi yuz bergan, natijada uzun आ [a:] tovushi hosil bo'lgan: एक *eka* "bir" + अक्षर *akshar* "harf" = एकाक्षर *eka:kshar* "monosillabik, bir bo'g'inli, qisqa, lo'nda"; एक *eka* "bir" + अग्र *agra* "oldingi, afzal, sara, oldinda" = एकाग्र *eka:gr* "diqqat-e'tiborli, ziyrak, hushyor; iltifotli, marhamatli, jonkuyar"; एक *eka* "bir" + अनुरूप *anuru:p* "mos, o'xshash" = एकानुरूप *eka:nuru:p* "o'xshash"; एक *eka* "bir" + अर्थ *arth* "ma'no" = एकार्थ *eka:rth* "bir xil ma'noli, ma'nodosh"; अष्ट *aShTa* "sakkiz" + अध्याय *adhya:y* "bob, bo'lim" + ई *i*: "affiksial morfema" = अष्टाध्यायी *aShTa:dhya:yi*: "sakkiz qismdan (bobdan) iborat" (sakkiz qismdan iborat Paninining grammatik asari)⁵³. Modeli: अ + अ = आ ($a + a = a:$)

Quyidagi modelga xos misollar ikki komponentdan tashkil topgan bo'lib, ular tarkibidagi birinchi so'zning so'nggi qisqa अ [a] unli tovushi va ikkinchi komponent vazifasini bajarayotgan morfemaning birinchi qisqa अ [a] unli tovushlarining qo'shilishi natijasida sandhiy hodisasi yuz berib, uzun आ [a:] unli tovushi hosil bo'lgan. Jumladan: एक *eka* "bir" + अकार *aka:r* "affiksial morfema" ("a" harfi) = एकाकार *eka:ka:r*

⁵¹ Камтапрасад Г. Грамматика хинди. Часть II. Пер. с хинди Г.А. и Р.И.Баранниковых. Под ред. и с предисл. проф. Б.А.Ларина. – М.: Издательство иностранной литературы, 1962. – С.281.

⁵² Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т I. – М.: Наука, 1986. – С.29.

⁵³ Хинди-русский словарь. Составители А.С.Бархударов, В.М.Вескровный, Г.А. Зограф, В.М.Липеровский. Под ред. В.М.Бескровного. Т I. – М.: Советская Энциклопедия, 1972. – С.286.

“o‘xshash, bir xil”; एक *eka* “bir” + अकी *aki*: “affiksial morfema” = एकाकी *eka:ki*:
 “yolg‘iz, yagona, tanho”. Modeli: अ + अ = आ (a + a = a:)

Keyingi guruhga oid misollar ikki komponentdan tashkil topgan bo‘lib, ular tarkibidagi birinchi so‘zning so‘nggi qisqa अ [a] tovushiga ikkinchi so‘zning birinchi ए [e] unli tovushi qo‘shilishi natijasida sandhiy hodisasi yuz bermoqda. Jumladan: एक *eka* “bir” + एक *eka* “bir” = एकैक *ekaik* “kimsasiz, yolg‘iz, tanho”. Modeli: अ + ए = ऐ (a + e = ai)

Hindiy tilidagi sonlardan yasalgan so‘zlarda yuz bergan sandhiy hodisasi ga oid modellar

Modellar	Unli tovushlarda sandhiy hodisasi (65 ta – 73,8 %)	Undosh tovushlarda sandhiy hodisasi (23 ta – 26,2 %)	Visarga tovushida sandhiy hodisasi
I model	son + ot = आ अ + अ = आ (a + a = a:)	son + ot = इ ट् + द = ड् (T + d = D)	–
II model	son + affiksial morfema = आ अ + अ = आ (a + a = a:)	son + ot = ण् ट् + म = ण् (T + m = N)	–
III model	son + son = ऐ अ + ए = ऐ (a + e = ai)	son + ot = ड ट् + अ = ड (T + a = D)	–

Ta’kidlash joizki, misollarning barchasida ikkita unli tovushning qo‘shilishi natijasida sandhiy hodisasi sodir bo‘lib, ular asosan एक *eka* “bir” sanoq sonidan yasalgan dvigu so‘zlari tarkibida uchraydi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi hindiy adabiy tilidagi एक *eka* “bir” sanoq soni talaffuz qilinganda, undagi क [k] tovushidan so‘ng qisqa अ [a] unli tovushi talaffuz qilinmaydi. Lekin, qadimgi hind-oriy tillariga xos bo‘lgan sanskrit tilida ushbu sonda क [k] tovushidan keyin qisqa अ [a] unlisi ham talaffuz qilingan. Ya’ni, एक *ek* emas, एक *eka* deb talaffuz qilinishi lozim. Qolaversa, sandhiy hodisasi asosan tatsama so‘zlarida hosil bo‘ladi. Aynan shuning uchun ham एक *eka* shaklining so‘nggi qisqa अ [a] unlisi boshqa so‘zlarning yoki morfemalarning boshida kelayotgan qisqa अ [a] unlisiga qo‘shilishi natijasida sandhiy hodisasi yuzaga kelgan. Shuningdek, ushbu guruhga oid misollar tarkibida qisqa अ [a] unlisi bilan ए [e] tovushi qo‘shilishi natijasida sandhiy hodisasi yuz bergan. Ularning qo‘shilishi natijasida ऐ [ai] diftongi hosil bo‘lgan. Ushbu guruhga oid yana bir e’tiborga molik jihat shundaki, tahlilga tortilgan misollarning barchasida sonlar prepozitsiya holatida kelgan bo‘lsa, ba’zi hollarda sonlarga oid so‘zlar postpozitsiya holatida o‘z ifodasini topgan. Ulardagi unli tovushlarning qo‘shilishi natijasida sandhiy hodisasi sodir bo‘lgan. Masalan, प्रति *prati* “har” + एक *ek* “bir” = प्रत्येक *pratek* “har bir, har qaysi”. Ushbu misol इ + ए = ये (i + e = ye) modeliga xos bo‘lib, uning birinchi komponentidagi इ [i] unlisiga ikkinchi komponentidagi ए [e] unli tovushining

qo‘shilishi bilan sandhiy hodisasi yuz bergan va natijada य [ye] yarim unlisi hosil bo‘lgan.

Hind tilshunoslarining an’anaviy tasniflariga ko‘ra qo‘shma so‘zlar to‘rtta asosiy guruhga bo‘linadi. Ular murakkab so‘z ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlardan iborat bo‘ladi. 1) av‘yaibhava so‘zlari; 2) tatpurusha so‘zlari; 3) dvandva so‘zlari; 4) bahuvrihi so‘zlari. Qo‘shma so‘zlarning yuqorida qayd etilgan guruhlari asosiy hisoblanadi. Shuningdek, ulardan har birining doirasida yana qo‘shimcha turlar ham mavjud. Ikki komponentli qo‘shma so‘zlarda ularning hokim yoki tobe holda bo‘lishi asosiy o‘rin tutadi. Birinchi bo‘lagi asosiy (hokim) bo‘lgan qo‘shma so‘zlar av‘yaibhava so‘zlari deb ataladi⁵⁴. Tatpurusha guruhidagi so‘zlarda esa ikkinchi bo‘lagi asosiy (hokim) so‘zlar hisoblanadi. Bunday birikmalarda, odatda, birinchi bo‘lak ot va sifatdan tashkil topgan bo‘ladi. Dvandva - qo‘shma so‘zlarning har ikki bo‘lagi mustaqil bo‘lgan so‘zlardir. Bahuvrihi - qo‘shma so‘zning bironta bo‘lagi mustaqil bo‘lmay, ular yaxlit holda biror otga nisbatan aniqlovchi vazifasini bajaradi. Tatpurusha so‘zlarining qo‘shimcha guruhi dvigu so‘zlari bo‘lib, ularning birinchi komponenti sonlardan tashkil topadi⁵⁵.

Mazkur bobda yuzdan ortiq dvigu guruhiga oid qo‘shma so‘zlar tahlil qilindi. Ular orasida aksariyat so‘zlar “bir” sanoq sonidan yasalgan. Qolgan so‘zlar boshqa birliklarga oid sonlardan yasalgan. Hindiy tilidagi birliklarga oid sanoq sonlardan yasalgan so‘zlar etimologiyasiga ko‘ra uchta katta guruhga oid. Tatsama guruhiga oid, ya’ni sanskrit tilidan bevosita adabiy yo‘l orqali o‘zlashtirilgan, qadimgi imloviy shaklini saqlab qolgan so‘zlar⁵⁶; tadbhava guruhiga xos bo‘lgan, ya’ni morfonologik o‘zgarish tufayli hosil bo‘lgan so‘zlar⁵⁷; gibrid, ya’ni o‘zlashma so‘zlar ta’siri ostida yasalgan so‘zlar⁵⁸.

Tatsama guruhiga oid birliklarga xos sonlardan yasalgan so‘zlar tarkibida sanoq sonlar hamda ot turkumiga oid so‘zlar ishtirok etgan bo‘lib, ulardan sifat turkumiga xos so‘zlar yasalgan. Masalan: एकजुट *ekjut* “uyushqoq, birdam” (sifat) = एक *ek* “bir” (son) + जुट *jut* “juft, guruh” (ot); एकजात *ekjat* “tug‘ishgan” (sifat) = एक *ek* “bir” (son) + जात *jat* “o‘g‘il farzand” (ot); एकरस *ekras* “birxil, o‘zgarimas” (sifat) = एक *ek* “bir” (son) + रस *ras* “ta’im, maza” (ot); एकरूप *ekru:p* “bir xil, baravar, teng, o‘zgarimas” (sifat) = एक *ek* “bir” (son) + रूप *ru:p* “shakl, ko‘rinish” (ot); द्विपक्षी *dvipakshi*: “ikki tomonlama” (sifat) = द्वि *dvi* “ikki” (son) + पक्षी *pakshi*: “qush, tarafdor” (ot); द्विपद *dvipad* “ikki oyoqli (sifat) = द्वि *dvi* “ikki” (son) + पद *pad* “oyoq” (ot); चतुर्दिक *chaturdik* “to‘rt tomonlama, har taraflama, atroflicha” (sifat) = चतुर *chatur* “to‘rt” (son) + दिक् *dik* “tomon, yo‘nalish” (ot); चतुष्कोण *chatushkon* “to‘rt burchakli (sifat) = चतुष् *chatush* “to‘rt” (son) + कोण *kon* “burchak” (ot). *Formulasi: son+ot=sifat.*

Quyidagi modeldagi tatsama guruhiga oid birliklarga oid sonlardan yasalgan so‘zlar tarkibida sanoq sonlar hamda ot turkumiga oid so‘zlar ishtirok etgan bo‘lib, ular otlarga oid leksik birliklarni tashkil etadi. Jumladan: एकपत्नी *ekpatni*: “vafodor xotin”

⁵⁴ भोलानाथ तिवारी। हिन्दी भाषा का संक्षिप्त इतिहास। – दिल्ली, ज्ञान भारती, 1981. – पृ 168.

⁵⁵ Гурю К. Грамматика хинди. Часть II. Пер. с хинди Г.А. и Р.И.Баранниковых. Под ред. и с предисл. проф. Б.А.Ларина. -М.: Издательство иностранной литературы, 1962. – С.275.

⁵⁶ Шоматов О.Н. Жанубий Осиё тилларига кириш. I қисм. – Т.: ТошДШИ нашриёти, 2003. – Б.39.

⁵⁷ भोलानाथ तिवारी। हिन्दी भाषा का संक्षिप्त इतिहास। – दिल्ली, ज्ञान भारती, 1981. – पृ 168.

⁵⁸ Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т I. – М.: Наука, 1986. – С.83.

(ot) = एक *ek* “bir” (son) + पत्नी *patni*: “xotin” (ot); एकनिष्ठा *eknishtha*: “sadoqat, ixlos” (ot) = एक *ek* “bir” (son) + निष्ठा *nishtha*: “ishonch, ixlos” (ot); एकवचन *ekvachan* “birlik” (ot) = एक *ek* “bir” (son) + वचन *vachan* “son (grammatik son)” (ot); द्विपथ *dvipath* “ayrilish, ayrilish joyi” (ot) = द्वि *dvi* “ikki” (son) + पथ *path* “yo‘l” (ot); द्विवचन *dvivachan* “ikkilik” (ot) = द्वि *dvi* “ikki” (son) + वचन *vachan* “son (grammatik son)” (ot); द्विहृदया *dvihridaya*: “homilador” (ot) = द्वि *dvi* “ikki” (son) + हृदया *hridaya*: “yurak” (ot); त्रिमास *trima:s* “yil choragi (uch oy)” (ot) = त्रि *tri* “uch” (son) + मास *ma:s* “oy” (ot); त्रिपाल *tripa:l* “chodir, g‘ilof” (ot) = त्रि *tri* “uch” (son) + पाल *pa:l* “himoya vositasi, chodir” (ot). *Formulasi: son+ot=ot* va hokazo.

Hindiy tilidagi birliklarga oid sonlardan yasalgan dvigu so‘zlari struktur-semantik jihatdan tahlil qilinishi natijasida hosil bo‘lgan modellar

Modellar	Tatsama so‘zlari (49 ta – 40,5 %)	Tadbhava so‘zlari (32 ta – 26,5 %)	Gibrid so‘zlar (40 ta – 33 %)
I model	son+ot=sifat	son+ot+affiks=sifat	son+ot+affiks=sifat
II model	son+ot=ot	son+ot=sifat	son+ot=ravish
III model	son+sifat=sifat	son+ot=ot	son+ot(s)+affiks=ot
IV model			son+ot(f)+affiks=ot
V model			son+ot=ot

Hindiy tilidagi birinchi komponenti sonlardan tashkil topgan dvigu so‘zlarining lisoniy va derivatsion tahlili natijalariga ko‘ra ular tatsama, tadbhava hamda gibrid so‘zlarga xos. एक *ek* “bir” sanoq soni ham tatsama, ham tadbhava, ham gibrid so‘zlar tarkibida ishtirok etgan. Birliklarga oid qolgan sonlar esa barcha dvigu so‘zlari tarkibida ishtirok etgan. Tatsama guruhiga oid dvigu so‘zlarida एक *ek* “bir”, द्वि *dvi* “ikki”, त्रि *tri* va त्रै *trey* “uch”, चतुर *chatur* “to‘rt”, पंच *pancha* “besh”, नव *nav* “to‘qqiz” kabi qadimgi sanskrit tilidagi birliklarga oid sanoq sonlar o‘z aksini topgan. Tadbhava guruhiga oid dvigu so‘zlari tarkibida एक *ek* “bir”, दो *do* “ikki”, पाँच *pa:Nch* “besh”, छः *che* “olti” va gibridlarga oid dvigu so‘zlari tarkibida esa एक *ek* “bir”, दो *do* “ikki”, ति *ti* “uch”, छः *che* “olti”, सत *sat* “yetti”, अष्ट *ashta* “sakkiz” kabi sanoq sonlar ishtirok etgan. Sanskritcha नव *nav* “to‘qqiz” sanoq soni faqatgina tatsama guruhiga oid dvigu so‘zlari tarkibida ishtirok etgan. Ta’kidlash joizki, garchi birliklarga xos bo‘lgan सात *sa:t* “yetti” आठ *a:th* “sakkiz” kabi sanoq sonlar dvigu so‘zlari tarkibida uchramagan bo‘lsa-da, सत *sat* “yetti”, अष्ट *ashta* “sakkiz” kabi sanskritcha shakllardan yasalgan dvigu so‘zlari ham bor.

Sonlarning ifodalanish jihatlarini tadqiq etish nafaqat lingvistlar, balki psixologlar, etnologlar, kulturologlar, tarixchilar, matematiklar va falsafa sohasidagi tadqiqotchilar uchun ham dolzarb hisoblanadi⁵⁹. Sonlar ishtirokida yasalgan frazeologizmlar o‘ziga xos jihatlari bilan farqlanib turadi. Son komponentli frazeologik birliklarni o‘rganish va ular bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish

⁵⁹ Шодуг Баягаслан. Семантика числительных во фразеологии монгольского, русского и английского языков: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт–Петербург, 2006. – С.3.

tilshunoslik sohasida dolzarb mavzulardan biriga aylanib borayotganligini ham ta'kidlash joiz.

Ushbu bo'lda 200 ga yaqin (196 ta) birliklarga oid son komponentli frazeologik birliklar semantik-struktur jihatdan tasnif etildi. Ular turli guruh va modellarga bo'lindi. Tahlil natijalariga ko'ra frazeologik butunlik, ya'ni ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlash mumkin bo'lgan frazeologik birliklar yetakchi guruhni tashkil etdi. Masalan: एक बात पर होना *Ek ba:t par hona:* (so'zma-so'z tarjimasini: bitta gap (so'z) ustida bo'lmoq) – “aytgan gapida turmoq, aytgan so'zida turmoq, lafzida turmoq”. अगर एक बात पर हो तो मेरे साथ चलो और नहीं तो स्वीकार करो कि तुमने कल असत्य कहा था।⁶⁰ *Agar ek ba:t par ho to mere sa:th chalo aur nahi:N to svika:r karo ki tumne kal asatya kaha: tha:.* “Agar aytgan gappingda tursang (aytgan so'zingda tursang) unda men bilan birga yur, baks holda kecha xaqiqatni aytmaganligingni tan ol”; एक हाथ से ताली न बजना *Ek ha:th se ta:li: na bajna:* (so'zma-so'z tarjimasini: bitta qo'l bilan qarsak chalinmaslik) – “qarsak ikki qo'ldan chiqmoq”. देखो भैया, दुकानदार ने भी ग्राहक को ज़रूर गलत सामान दिया होगा तभी ये चिल्ला रहे हैं, आखिर एक हाथ से तो ताली नहीं बजती।⁶¹ *Dekho bhaiya:, duka:nda:r ne bhi: gra:hak ko zaruur g'alat sa:ma:n diya: hoga: tabhi: ye itna: chilla: rahe hain, a:xir ek ha:th se ta:li: nahi:n bajti:.* “Menga qara uka, do'kondor ham xaridorga noto'g'ri (boshqa) narsa bergan bo'lsa kerakki, shuning uchun u qichqirib yotibdi. Axir qarsak ikki qo'ldan chiqadi-ku”. *Modeli: SS(1) → FB*

दो दिन का मेहमान⁶² *Do din ka: mehma:n* (so'zma-so'z tarjimasini: ikki kunlik mehmon) – “vaqti-soati bitgan”. सड़क दुर्घटना में रमेश गंभीर रूप से घायल हो गया तो डाक्टर ने कहा कि वह दो दिन का मेहमान है। *SaRak durghatna: mai Ramesh gambhi:r ruup se gha:yal ho gaya: to daktaR ne kaha: ki vo do din ka: mehma:n hai.* “Yo'lda sodir bo'lgan baxtsiz hodisada Ramesh qattiq shikastlandi (qattiq yarador bo'ldi), doktor esa uning vaqti-soati bitganligini aytdi”; दो-दो बातें करना⁶³ *Do-do ba:ten karna:* (so'zma-so'z tarjimasini: ikkita-ikkita so'z (gap) qilmoq yoki ikkita-ikkita gaplashmoq) – “ikki og'iz gaplashmoq”. मैं ने तो अपने दिल्ली आने की सूचना किसी को भी नहीं दी थी?! मैं तो अपना यह छोटा वक्त अपने लिए खर्च करना चाहता था! साँस लेना चाहता था... और अपने ही भीतर झाँक कर अपने आप से दो-दो बातें करना चाहता था...? लेकिन... *Main ne to apne Dilli: a:ne ki: suuchna: kisi: ko bhi: nahi:n di: thi:?! Main to apna: ye chota: vakt apne liye kharch karna: chahta: tha:!! Sa:ns lena: cha:hta: tha:... Aur apne hi: bhi:tar jha:nk kar... Apne a:p se do-do batain karna: cha:hta: tha:...? Lekin...* “Men Dehliga kelayotganligim haqida hech kimga xabar bermagan edim?! Men ozgina vaqtimni o'zim uchun sarflashni istagan edim! Bemalol nafas olgim kelgandi... va qalbimga mo'ralab.... o'zim bilan o'zim ikki og'iz gaplashgim kelgandi...? Lekin...” *Modeli: SS(2) → FB* va hokazo.

⁶⁰ भोलानाथ तिवारी। हिन्दी मुहावरा कोश। – इलाहाबाद, किताब महल, 1964. – पृ।70.

⁶¹ रजनी गुप्त। कितने कठघरे। – नयी दिल्ली, वाणी प्रकाशन, 2015. –पृ। 94.

⁶² भोलानाथ तिवारी। हिन्दी मुहावरा कोश। – इलाहाबाद, किताब महल, 1964. – पृ। 310.

⁶³ Хинди-русский словарь. Составители А.С.Бархударов, В.М.Бескровный, Г.А. Зограф, В.П.Липеровский. Под ред. В.М.Бескровного. Т.І. –М.: Издательство «Советская Энциклопедия», 1972. – С. 807.

Hindiy tilidagi son komponentli frazeologik birliklarning semantik-struktur modellari

Birliklarga oid sonlar (ja'mi 196 ta – 100 %)	Frazeologik butunlik (86 ta – 44 %)	Frazeologik qo'shilma (63 ta – 32 %)	Frazeologik chatishma (47 ta – 24 %)
एक <i>ek</i> “bir” (92 ta – 47 %)	<i>SS(1) → FB</i> (49 ta – 25 %)	<i>SS(1) → FQ</i> (25 ta – 13 %)	<i>SS(1) → FCH</i> (18 ta – 9 %)
दो <i>do</i> “ikki” (35 ta – 18 %)	<i>SS(2) → FB</i> (16 ta – 8 %)	<i>SS(2) → FQ</i> (11 ta – 6 %)	<i>SS(2) → FCH</i> (8 ta – 4 %)
तीन <i>ti:n</i> “uch” (15 ta – 8 %)	–	<i>SS(3) → FQ</i> (9 ta – 5 %)	<i>SS(3) → FCH</i> (6 ta – 3 %)
चार <i>cha:r</i> “to‘rt” (25 ta – 13 %)	<i>SS(4) → FB</i> (12 ta – 6 %)	<i>SS(4) → FQ</i> (8 ta – 4 %)	<i>SS(4) → FCH</i> (5 ta – 3 %)
पाँच <i>pa:nch</i> “besh”	–	–	–
छः <i>chhe</i> “olti”	–	–	–
सात <i>sa:t</i> “yetti” (17 ta – 9 %)	<i>SS(7) → FB</i> (9 ta – 5 %)	<i>SS(7) → FQ</i> (5 ta – 3 %)	<i>SS(7) → FCH</i> (2 ta – 1 %)
आठ <i>a:th</i> “sakkiz” (7 ta – 3 %)	–	<i>SS(8) → FQ</i> (5 ta – 2 %)	<i>SS(8) → FCH</i> (2 ta – 1 %)
नौ <i>nao</i> “to‘qqiz” (5 ta – 2 %)	–	–	<i>SS(9) → FCH</i> (5 ta – 2 %)

Hindiy tilidagi son komponentli 196 ta frazeologik birliklar semantik-struktur jihatdan tasnif qilinganda, ular frazeologik butunlik, frazeologik qo'shilma va frazeologik chatishma kabi guruhlariga bo'linadi. Tahlil natijalariga ko'ra frazeologik butunlik guruhiga oid iboralar yetakchi o'rinni egallagan bo'lib, ular ja'mi misollarning 44%ini tashkil etdi. Keyingi o'rinlarni frazeologik qo'shilma (32%) va frazeologik chatishma (24 %) guruhlariga oid misollar egalladi.

“Hindiy tilidagi numerativlarning derivatsion hamda valentlik tahlili” nomli to'rtinchi bob hozirgi hindiy adabiy tilida qo'llanadigan arxaik numerativlarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganishga, shuningdek hindiy tilidagi numerativlarning etimologik va valentlik tahlilini amalga oshirishga hamda numerativlardan yasalgan frazeologik birliklarning struktur-semantik jihatdan tasniflashga bag'ishlangan.

Hozirgi hindiy adabiy tilida qo'llanadigan numerativlarning aksariyati tatsama hamda tadbhava so'zlarini tashkil etadi. Shuningdek, ular orasida arab-fors tillaridan o'zlashgan videshi so'zlari ham, oz bo'lsa-da uchraydi. Ularning miqdori turli shtatlarda turlicha. Hozirgi hindiy adabiy tiliga numerativ so'zlarning ba'zilari hatto 2 tadan 5 tagacha nomga ega. Ular bir-biridan farq qiladi. Ayniqsa, *जरीब jari:b* hisob so'ziga oid shakllardan har birining o'ziga xos xususiyati bor. Xalqaro o'lchov birliklari joriy qilinganidan so'ng, arxaik numerativ so'zlarning soni ko'payib borgan Ta'kidlash joizki, xalqaro o'lchov birliklari nomlari joriy qilingunga qadar Hindistonda arxaik numerativlar keng qo'llangan. Hozirgi kunda ham arxaik so'zlarga aylangan ushbu so'zlar mahalliy aholi tomonidan hanuzgacha qo'llanib kelinmoqda. Hatto ushbu arxaik so'zlar ishtirokida hosil bo'lgan bir necha frazeologik birliklar ham hind xalqi tomonidan hanuz ishlatilmoqda.

Ko'pgina ilmiy asarlarda qayd etilishicha, predmetning soniga ko'ra belgisini ifodalab keladigan sanoq sonlar ba'zi vaqtlarda predmetlarning hisobini ko'rsatuvchi

soʻzlar – numerativlar bilan birga qoʻllanadi. Bu soʻzlar asosan sanalayotgan aniq narsani koʻrsatmay, oʻsha narsani hisoblashda uning qaysi kategoriyaga, guruhga oid ekani aniqlash uchun ishlatiladi. Bu soʻzlar sanoq son bilan sanaladigan narsani ifodalovchi soʻz orasida kelib, ularning ogʻirligi, uzunligi, hajmi, joylashish oʻrni va boshqa shunga oʻxshash xususiyatlariga koʻra oʻlchovini bildiradi. Hozirgi hindiy adabiy tili leksikasida ham koʻplab numerativ soʻzlar mavjud boʻlib, ularning oʻziga xos ifodalanish jihatlari mavjud.

Hindiy tilida keng qoʻllanadigan numerativlar etimologiyasiga koʻra uchta katta tipga oid: 1) tadbhava⁶⁴ guruhiga xos boʻlgan, yaʼni morfonologik oʻzgarish tufayli hosil boʻlgan soʻzlar; 2) tatsama⁶⁵ guruhiga oid, yaʼni sanskrit soʻzlaridan shaklan va maʼno jihatidan oʻzgarmagan soʻzlar; 3) videshi⁶⁶, yaʼni oʻzlashma soʻzlar.

Tahlil natijalariga koʻra tadbhava tipiga oid ogʻirlik oʻlchov birligiga xos numerativlar yetakchi oʻrinni egallaydi. Masalan: मन ⁶⁷ *man* – ushbu soʻz 40 kilogrammga teng boʻlgan ogʻirlik oʻlchov birligi hisoblanadi. Baʼzi bir manbalarda ushbu numerativ quyidagicha talqin etiladi: मन *man* = 8 पसेरियाँ *paseriya:n* = 10 धरे *dhare* = 40 सेर *ser* = 37, 324 kg. Ushbu numerativ soʻzning variantlari ham mavjud boʻlib, ularning oʻlchovida farqlar ham kuzatiladi. बाज़ार मन *ba:za:r man* = 37,28 kg, कारखाना मन *ka:rkha:na: man* = 33,86 kg, बंबई मन *bambai: man* = 12,7 kg, मद्रास मन *madra:s man* = 11,34 kg. Tadbhava tipiga oid ogʻirlik oʻlchov birligiga xos numerativ soʻzlar ham yetakchi oʻrinni ega. Jumladan: कोस *kos* – ushbu soʻz baʼzi manbalarda 3,2 kilometr (3200 metr), baʼzilarida esa 3,3 kilometr (3300 metr) uzunlik oʻlchov birligiga teng qilib berilgan. Baʼzi manbalarda esa 2000 दंड *dand* ga (3660 metr) ham mos oʻlchov birligi ekanligi ham qayd etilgan.

Sanskrit soʻzlaridan kelib chiqib shaklan va maʼno jihatidan oʻzgarmagan tatsama tipiga oid uzunlik oʻlchov birligiga xos numerativlarga quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin. Masalan: योजन *yojan* – mazkur numerativ soʻz tahminan 15 kilometrga teng masofa birligini anglatadi. Baʼzi manbalarda u 4 कोस *kos* ga ham tenglashtiriladi.; दंड *dand* – bu soʻz 1,83 metrga teng boʻlib, u 2 गज़ *gaz* va 4 हाथ *ha:th* uzunlik oʻlchov birliklariga tengdir. प्रदेश *pradesh* – bu soʻz oʻzbek tilidagi *qarich* oʻlchov birligiga xos boʻlgan soʻzga mos boʻlib, u tahminan 15-20 santimetrga teng. Taʼkidlash joizki, tatsama tipiga oid numerativlarga oid soʻzlar faqatgina bitta guruhga, yaʼni uzunlik oʻlchov birliklariga xos. Bular aynan sanskrit tilidagi soʻzlar boʻlib, ular hech qanday fonetik oʻzgarishlarsiz hozirgi hindiy adabiy tiliga oʻtgan.

Videshi tipiga oid soʻzlar – bular, arab, fors va gʻarb tillaridan oʻzlashgan numerativlar boʻlib, ular quyidagi kichik guruhlarga boʻlib oʻrganiladi. 1 (a)-guruh.

⁶⁴ भोलानाथ तिवारी। हिन्दी भाषा का संक्षिप्त इतिहास। – दिल्ली, ज्ञान भारती, 1981. – पृ। 168.

⁶⁵ Shomatov O.N. Janubiy Osiyo tillariga kirish. I qism. – T.: ToshDSHI nashriyoti, 2003. – B.39.

⁶⁶ Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т. I. – М.: Наука, 1986. – С.83.

⁶⁷ Hindiy tilidagi numerativlarga oid soʻzlar बृहत हिन्दी कोशा – वाराणसी, ज्ञानमण्डल लिमिटेड, 2009. – 1781 पृ।; Хинди-русский словарь. Составители А.С.Бархударов, В.М.Бескровный, Г.А. Зограф, В.М.Липеровский. Под ред. В.М.Бескровного. Т. I. – М.: Советская Энциклопедия, 1972. – 907 с. Хинди-русский словарь. Составители А.С.Бархударов, В.М.Бескровный, Г.А. Зограф, В.П.Липеровский. Под ред. В.М.Бескровного. Т. II. – М.: Издательство «Советская Энциклопедия», 1972. – 912 с. kabi lugʻatlardan olindi.

Ushbu guruhdagi misol uzunlik o'lchov birligiga xos bo'lib, u arab tilidan o'zlashgan. Masalan: *जरीब jari:b* – mazkur so'z 50 metrga teng bo'lgan uzunlik o'lchov birligi ma'nosini anglatadi va u ba'zi manbalarda 20 *गट्टे gatthe* o'lchov birligiga ham tenglashtirilgan. *1(b)-guruh*. Mazkur guruhdagi misollar uzunlik o'lchov birligiga xos bo'lib, ularning barchasi fors tilidan o'zlashgan. Masalan: *गज़ gaz* – bu 90-92 santimetrغا teng bo'lgan numerativ so'z bo'lib, u 2 *हाथ ha:th* ga mos so'z sifatida ham qayd etiladi. *1(v)-guruh*. Ushbu guruhdagi misollar uzunlik o'lchov birligiga xos bo'lib, ularning bari ingliz tilidan o'zlashgan. *इंच inch* – mazkur numerativga oid bo'lgan so'z 2,5 santimetrغا teng. Shuningdek, ushbu so'z 0,083 (1/12) futga ham teng o'lchov birligi sifatida qo'llanadi. Ilgari bu o'lchov birligi aniq bir uzunlik oraliqidagi masofani anglatmagan. Hozirda bu so'z aynan 2,5 santimetrغا teng o'lchov birligi sifatida qo'llanadi. *फुट fut* – ingliz tilidan o'zlashgan mazkur o'lchov birligi 30,5 santimetrغا tengdir. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, XX asrga kelib butun dunyoda yangi o'lchov tizimi joriy etilganidan so'ng, barcha mamlakatlarda qo'llangani kabi Hindistonda ham uzunlik o'lchov birligi uchun – *metr*, og'irlik o'lchov birligi uchun – *kilogramm*, yuza uchun – *kvadrat metr* keng qo'llana boshlagan. Lekin, shunday bo'lsa-da, qadimda keng qo'llangan ko'pgina o'lchov birliklari hozirda ham iste'foda etiladi.

